

AXMADJON ORINOV

YORITISH REJISSURASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta
maxsus, kasb- hunar ta'lim markazi
O'zbekiston Badiiy Akademiyasi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

A.Orinov

Yoritish rejissurasi

(Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma)

Bilim soxasi: 500000-muxandislik ishlov berish va qurilish tarmoqlari
Tayyorlov yo'nalishi: 3522100-televidenie, radioaloqa va radioeshittirish.
Kasbi: 3522103- maxsus yoritish mexanigi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent - 2013

Mazkur uslubiy qo'llanma Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Ilmiy Kengashi tomonidan (2013 yil “__” _____ №__ bayonnoma) nashr etish uchun tavsiya etilgan.

O'rta maxsus o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan mazkur o'quv qo'llanmada yoritish rejissurasining maqsadi teatr, televidenie va kino ishlab chiqarishda yorug'lik uskunolari yordamida sifatli tasvirga olish va ommaga uzatish, yoritish bo'yicha rejisserning roli yoritish uskunalarini o'rnatish singari masalalarga to'xtalindi. Yoritish rejissurasida yoritish uskunalarini o'rnatish, vazifa bo'libgina qolmay, yoritish texnika assoslarini va yoritish manbalari, uskunalarini bilish zarur bo'ladi. Bu bilimlar yoritish rejissurasida yoritish uskunalaridan to'g'ri va professional darajada foydalanishga ko'maklashadi.

Mas'ul muharrir: — Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti professori, akademik Sa'dulla Abdullaev

Taqrizchi: — O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, katta o'qituvchisi, Respublika yosh tomoshabinlar teatrining bosh rejissyori **A.Gamirov.**

Taqrizchilar: — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi professor Sh.Abdumalikov.
- Teatr bezagi rangtasvir kafedrasida dosenti N.Qurbonqulov

© A. Orinov
© K.Behzod nomidagi MRDI.- 2013

KIRISH

Yoritish rejissurasi maqsadi teatr, televedinie va kino ishlab chiqarishda yoritish uskunalarining asosiy qismlari va ularning asosiy vazifalari bilan tanishtirishdan iborat. Tayyorlanayotgan spektakl montajida sahna tuzilishini ham yaxshi bilishi kerak. Spektakllarni tayyorlash vaqtida sahnaning texnik imkoniyatlarini bilish va hisobga olish, dekorasiya bezaklarini bezatish o'ziga xos badiiy echimlarga olib keladi va bunday paytda bezaklar oson tayyorlanadi, spektaklni sahnalashtirish oson kechadi.

Montaj ishlarini tayyorlashda, sahna bezagi xaqida tasavvurga ega bo'lish kerak, zarur bo'lganda, sahna bezagini yoritish paytida qanday ko'rinishda bo'lishini tasavvur xam qilish kerak. Shuning uchun, montaj vaqtida sahnadagi bezaklar, sahna chiroqlari orqali yoritiladi. Bezak qismlari esa keng ko'lamda yoritiladi va tegishli ranglar beriladi. Yorug'lik berish asosan reja asosida bo'lib, har bir sahna o'zgarishida ranglar ma'lum bir holatlarga asoslangan holda yoritilishi mumkin. Spektaklning boshidan oxirigacha chiroq ustasi qo'lidagi rejaga asosan, qismlarga bo'lgan holda sahna bezaklarini yoritib boriladi. Teatrda, film tasviriy echimlarida, shuningdek teleko'rsatuvlarda xam chiroqlarning o'zni beqiyosdir. Sahnada ko'plab yoritish asboblaridan foydalanish jadal sur'tlarda o'sib bormoqda. Sahnaning orqa qismi, shaffof matodan tikilgan pardalar, moybo'yoq bilan ishlangan bezaklar yoritish uskunalari va rangli filtrlar orqali yoritilsa yuqori samaraga erishiladi. Sahnani yoritishda ko'pchilik xatolar va muvaffaqiyatsizliklardan qutilish mumkin. Sahnani yoritish mahorati yildan-yilga yangi uslublarga tayangan holda olib boriladi. Yoritish mahoratini talabalarga o'rgata borib yangi ish tajribalarini eng qisqa va to'g'ri, oson yoritish usullari bo'lajak teatr, kino va teleko'rsatuv mutaxassislariga yordam berishi mumkin.

Yoritish mahoratini o'rgata borib jahon andozalariga va tajriba uslublariga ko'proq e'tiborni qaratish kerak. Sahnada ranglarining roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, hamma bezaklarni rangli tayyorlash shart emas. Demak yoritish vositalari orqali ranglarni taqsimlash teatr yoki kino harajatlariga putur etkazmasligini nazarda tutish lozim. Yorug'lik bu obraz, shodlik, fojia va boshqalar. Yorug'lik deyarli sahnanning joni deb ta'riflana mubolag'a emasdir.

I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" kitobida hozirgi zamon teatrlari, kino, teleko'rsatuvlar umuman san'at sohasidagi barcha xodimlar: sahna rassomlari, rejissyorlar, aktyorlar va boshqa sohadagi san'at ustalari zamonaviy, yangi asarlar ustida yangicha uslubda ijod qilishmoqda, ko'plab, spektakllar, kinofilmlar, san'at asarlari yaratilmoqda, degan so'zlaryozib qo'yilgan. Xaqiqatdan ham "Fond forum" tadbirlarida ko'plab yangicha jahon tajribalari namoyish etilmoqda, yurtimiz teatrlarida yangi spektakllar sahnaga olib chiqilmoqda va shuningdek yosh iqtidorli rejissyorlarimiz o'zlarining zamonaviy kinofilmlarini yaratmoqdalar.

Yoritish rejessurasining teatr televedinie va kino

ishlab chiqazishdagi o‘rni

Teatrning asosiy vasifasi ma’naviyatni rivojlantirish, keng xalq ommasini jahon madaniyati xazinasidan bahramand etishdir.

Jahon andozalariga mos keluvchi teatr sahnalari, ustaxonalar yoritish jihozlari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda ma’naviyatni yuksaltirish uchun, teatr va televedinie sa’natini rivojlantirishga katta e’tibor berilayotgani har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga, shu sahiy zaminda yashayotgan barcha millat va elatlar tengligi va do‘stligini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shishga, yangi ijodiy muvaffaqiyatlarga ilxomlantiradi.

Xozirgi paytda qaysi yo‘ldan qanday borish kerakligini teatrlarni o‘zlari va ularning badiiy rahbarlari mustaqil hal qilishlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Mavzular, uslublar va usullar xilma-xilligi teatrning olg‘a siljishiga omildir.

Teatr arboblari o‘z faoliyatida aktyor ijrosida, sahnalashtirish uslubida milliy a’nanalarga alohida e’tibor berish arqali davr nafasini aks etirishga intilmoqda. So‘nggi teatr mavsumlari rejessyor va rassomlar o‘z faoliyatlarini ancha jonlantirganliklarini ko‘rsatmoqda.

Teatrning mamlakatimiz tarixi va o‘tmishi haqida hikoya qiluvchi spektakllari buning yorqin dalilidir. Shu jihatdan A.Oripovning “Sohibqiron” va U.Azimning “ Kunduzsiz kechalar ” spektakllari diqqatga loyiqdir spektaklidagi rejissyorning maqsadi - podshohning ko‘pqirrali obrazini, qudratli buyuk davlat qurishdek yagona niyat bilan yonayotgan insoning murakkab, iztirobli kechinmalari mohiyatini yoritishdan iborat.

Sahnada umumlashma muhit yaratilgan, unda ifoda vositalari bilan voqealar o‘rni va vaqti belgilangan. Oddiy ixcham dekorasiyalarini erkin joylashtirish asosiy e’tiborni Amir Temur siymosiga qaratish imkonini beradi. Projektor nuri qaxramonni umumiy fondan ajratib, tomoshabinlarga yaqinroq qilib ko‘rsatadi. Oxista bosilgan qadam tovushlari quloqqa arang chalinadi. Ola-chalpak shu’larning jivir-jiviri, soyalarning lapillashi yovuzlikdan darak beruvchi muhitni yanada kuchaytiradi. Rejissyor rassom shu tarzda barcha sahna vositalaridan: nur, tovush, musiqadan unumli foydalangan.

Spektakl avvalo har bir voqeaning, epizodning mohiyatini ifodalashga qodir sahna vositalariga boyligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Tasviriy vositalar, musiqa, plastikaning murakkab ohangdoshligidan spektakl obrazi yaratiladi. Rassom rang, nur, buyumlar, rang-barang liboslarning o‘zaro uyg‘unligidan ajoyib dekorasiya yaratadi.

Rassom mehnatisiz, jonli tasvirlarsiz quruq sahnada hayot aksini aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Musavvirning o‘tli nigohi bilan mehr chashmasi va go‘zal to‘yg‘ulariga yo‘g‘rilgan sahna asari dunyoga keladi. Sahn bezaklari, har qanday dekorasiya yordamida tarix sahifalari va tomoshabinlar oldida koinot nurlar bilan yoritilgan siymolar namoyon bo‘ladi. Sahn shakllanadi.

Sahnada jonli harakat aktyor yoki dekorasiya gavdalanadi, ular nur, yorug'lik ta'sirida tamoshabinning hayajonini oshiradi. Sahnada shahar, bino, saroy, hujra, voqealar faqat bir xil dekarasiyada ko'rsatiladi, katta-katta xarsang toshlar savlat to'kib turgan daraxtzorlar, suv to'ldirib qo'yilgan ko'zalar, oqayotgan buloqlar toshlar abadiyat timsoli, draxtlar – mangu tiriklik ramzi, suv poklik xallolik belgisi, bo'lib qoladi.

Ana shu tilsiz guvohlar hayotning mazmunidan so'zlaydi. O'tkinchi dunyoda uning buyukligidan hikoya qiladi. Mana shu predmetlarni jonlantirishda nur t yorug'lik projektorlar, sofitlar yodrdamida har-xil rangdagi fil'rlarni o'rni katta. Sahnadagi predmetga yoritishda sovuq issiq ton, yarim soyalarga e'tibor berish kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Yoritish rejessurasining teatr va kino televediniedagi roli nimada?
2. Yoritsh rejessurasining vazifasi nimalardan iborat?



**1-rasm “Mashrab” spektakli eskizi A.Orinov.
Yoritish rejissurasida yaxlitlik**

Sahna asari qaysi janrda bo'lmasin, unda aks etgan voqeaga yaratilgan eskizdagi ranglar katta rol o'ynaydi. Eskiz yaratilgan asar g'oyasi rang, yorug'lik, nur yorug'lik koloritini yo'qotmagan holda sahna bezakchi rassomidan yuksak mahorat talab qiladi. Sahna bezagi dekorasiyalari katta-kichik hajmda bo'lishi mumkin. Sahna orti bezagi katta hajmda bo'lib, asardan kelib chiqqan holda bezalgan. U sahnaning orqa qismini egalaydi. Oldi tomonda joylashtirilgan barcha dekorasiya bezaklarni ma'nosini ta'kidlab turadi. Muhim vazifalardan biri shuki sahna oldiga yoki orqasiga osilgan sahna bezagini yoritilish tomosha zalining har bir joyidan yaxshi ko'rinishi kerak.

Sahna bezagi dekorasiyalar yorug‘ va soyalar uyg‘unligini ta’minlovchi projektor nurlari bilan yoritiladi. O‘ng va lojeda, Chap lojeda o‘rnatilgan yoritish texnikasidan foydalaniladi. Har bir projektorlar muhitga qarab fil’tir orqali har xil ranglar bilan ta’minlanadi va yorug‘lik beriladi. Sahna yoritgich chiroqlar sust, xira, kuchli yorug‘lik kuchiga ega bo‘lishi kerak.

Sahna muhitiga mos yorug‘lik nuri beriladi. Kuchli yonadigan chiroqlar bilan yoritilganda ranglar tusi o‘zgaradi. Masalan, oq rang filtrlar yordamida har xil tusdagi rangga aylanadi. Binafsha, kulrang, to‘q ko‘k rang, sahnada romantik ranglarni tashkil qiladi.

Sahnalashtiruvchi rassom tomonidan yaratilgan asar g‘oyasini ifoda etuvchi eskizlarni ijodiy uslub xususiyatlaridan chetga chiqmagan holda bajarilishi shart. Ushbu sahna bezaklarini amaliy jihatdan mukammal yoritish uchun yoritish texnikasini, texnologiyasini yaxshi bilishi kerak bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sahna bezagining ahamiyati nimada?
2. Yorug‘lik nurini hususiyati ?



2-rasm. “Ur-to‘qmoq” spektakli eskizi A.Orinov.

Yoritish rejessurasida proeksiya

Yorug‘lik proeksiyasi spektaklni badiiy bezashda katta ahamiyatga ega va turli sahna effektlarni hosil qilish vositasi hisoblanadi. Teatr sahnasida ko‘plab kartinalarni va sahna effektlarini tasvirlashda proeksiya diapozitivning ahamiyati katta.

Proeksiya sahnadagi rangtasvir va xajmli bezaklar o‘rnini bosa olmaydi, u faqat spektaklni badiiy bezakli qismi hisoblanadi xolos. Undan sahna kartinasini bezash uchun tasviriy vosita sifatida foydalanish mumkin. Lekin u ko‘proq sahnada yassi tasviriy va xajmiy bezaklar bilan birga foydalaniladi. Ranglar boy bo‘lgan osmon bulutlari manzaraning eng ifodaviy qismi hisoblanadi. Shuning uchun spektakllarda osmonni tasvirlashga aloxida e’tibor beriladi. Osmon tasvirida harakat vaqti, tabiat

holatini talqin etishi spektakl muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Osmonni matoda elim bo'yog'i, ba'zan transparant yorug'ligi bilan tasvirlanadi. Ammo proeksiya osmonning eng ifodali kartinasini beradi. Tegishli tasvir proeksiyadan orqa plandagi oq ekranga tushiriladi. Sahna orqasiga shtanketda ilingan mato ekran vazifasini o'taydi.

Rangtasvir orqa matolar sahna balandligi yarimicha xajmda tayyorlanadi, shunda uni ko'targanda tomosha zalidan ko'rinmaydi. Masalan, 20metr chuqurlikdgi sahnada orqa matolar 25metr balandligiga nisbatan 11-12 metr bo'ladi.

Proeksiyani samarali qo'llash uchun uskuna sahnaning devordagi peshtoq teshigi ustiga o'rnatilishi maqsadga muvofiq. Uni peshtoq ko'pirigiga o'rnatmagan ma'qul, negaki ishlash chog'ida ko'prik titrab ketadi, bu ufq tasvirini ham titrab ketishga sabab bo'ladi. Proeksiya uskunolari maxsus moslamalarga mahkamlab qo'yiladi, lekin bunda peshtoq ko'prigidan ularni boshqarish qulay bo'lishi kerak.

Proeksiyani qo'llab sahna yoritilganda nur taratuvchi yoritish uskunalaridan foydalanib bo'lmaydi, bularga "Gf", "NP-2" soffitlarini kiritish mumkin.


Sahna va aktyorlarni yorituvchi projektorlar nuri polga tushib ufqqa qaytmaydigan qilib o'rnatilishi kerak. Shuningdek sahnada shunday bezak qismlari va qiya yuzalaridan foydalanish kerakki, ularni yalpi yoritishda ufqqa nur qaytarmasin. Boshqa yorug'lik manbalarini yoritishda ufqqa qanchalik kam tushsa, unda proeksiya aniqroq ko'rinadi.

Nur tarqalmasligi uchun projektorlarga yon to'siqlar qo'yiladi, yoki nurni cheklovchi tubuslardan foydalaniladi.

Ufqni umumiy yoritish va bir xilda rangdagi osmonni yaratish uchun kuchli yoritishuskunalaridan iborat bo'lgan soffitlar qo'llanadi.


Ko'pgina teatrlarda ufq soffitlari tekis yorug'lik beruvchi kamera soffitlaridan iborat bo'ladi. Osmonning haqqoniy va ifodali ko'rinishini yaratish uchun uning ayrim qismlarini yoritish yoki bo'yash zarur bo'ladi. Shuning uchun ayrim yoritish uskunalaridan iborat ufq soffitlari qulay va maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uskunalar maxsus metall armaturaga qator qilib o'rnatiladi, uning sxemasi 5-rasmda ko'rsatilgan. Ularning miqdori teatr imkoniyati va zaruratga bog'liq bo'ladi.



3-rasm Uch qatorli ufq soffiti

Rangni talabaga ko‘ra turli variantlarda taqsimlash mumkin (4- rasm). Faqat moviy, ko‘k va yashil ranglar ko‘proq, oq va iliq ranglar kamroq bo‘lishi kerakligini xisobga olish zarur bo‘ladi. Ranglar bunday taqsimlanganda ufq soffiti bilan butun ufqni va uning ayrim qisimlarini tekis yoritish mumkin.



4-rasm. Uch qatorli turli rangdagi ufq soffiti yorug‘ligi manbalarini taqsimlanishi


Agar yoritish uskunalari rangli filtrlar bilan jihozlansa, ufqni turli rangda yoritish imkoniyati kengayadi. Teatr sahnasidagi ufq nihoyatda katta palitruga aylanib qoladi, unda turli rangdagi ifodalarni yaratish mumkin bo‘ladi. Bu doim o‘zgarib turadigan osmon ko‘rinishi spektaklning badiiy mazmuni va talablariga mos keladi.

Ufqni yana bulutlar proeksiyasi bilan yoritib sahnada shunday yoritish kompleksi yaratiladiki, uning yordamida rang-barang ko‘rinishidagi osmonni tasvirlash mumkin bo‘ladi.

Teatrlarda yorug‘lik proeksiyasini qo‘llash sahnalashtirishga ketadigan mablag‘larni ancha tejash imkonini beradi. Sahnada tasviri uchun materiallar va

ishchi kuchiga sarflanadigan xarajatlar ancha qisqaradi, negaki proeksiyadan foydalanib aynan bir ufqni ko‘p yillar qo‘llash mumkin. Sahna ishchilari ishi ham ancha englashadi.

Osmon proeksiyasi uchun “ PRP-1” proeksiya uskunasi foydalanish mumkin. Lekin uning quvvati talabga javob bermaydi. Shuning uchun suv bilan sovutiladigan quvvatliroq proeksiya uskunasi yaratildi (5-rasm).



5-rasm. Suv bilan sovutiladigan proeksiya uskunasi

Lekin bu uskunaning sovutish tizimini katta hajmdaligi uning kamchiligi hisoblanadi, uni suv tarmog‘iga ulash qiyin bo‘ladi.

Teatr talablariga javob beruvchi proeksiya uskunalarini etarli darajada emasligi teatrlarda ulardan kam foydalanilayotganligi sabab bo‘ladi. Bulardan tashqari diapozitivlar yaratish sohasidagi bilimlar kamlik qilmoqda.

Diapozitivlar yaratish ustida ko‘p yillardan buyon ishlanayapti, lekin yorug‘lik bezaklarini yaratishda yangidan-yangi muammolar paydo bo‘lmoqda, ularning faqat tajriba yo‘li bilan hal qilishi mumkin.

Dastlabki tajribalar chog‘ida olingan qoniqarsiz natijalar ko‘pgina teatrlarda proeksiyalarni rad etishga sabab bo‘ldi. Lekin proeksiyaning tejamlilik, yaxshi

samara berishi katta amaliy ahamiyatga ega.

Proeksiya uskunalarini sotib olish bilan sahnani bezashda yorug'lik proeksiyasini qo'llash bilan bog'liq masala hal qilinmaydi. Proeksiyani qo'llash, ko'pgina qarashlar va e'tiqodlarini qayta baholashni, rejissyor va rassomning hamkorlikda ishlashini talab qiladi. Teatrda rassomga sahna maydonini yaxshi rejalashtirish imkoni berilishi kerak.

Proeksiya uchun sahnadagi bezaklar yoki arxitektura binolari proeksiya uskunasi nuridan tashqarida bo'lishi lozim. Agar buning imkoniyati bo'lmasa, bezaklardan proeksiya uskunasi nurlari bimalol o'ta oladigan teshiklar ochish tavsiya etiladi.

Teatr proeksiya uskunolari keng fokusli ob'ektivlardan iborat, ularning nuri oldingi planda unchalik kuchli emas, shuning uchun proeksiyada sahna eni bo'ylab padugadan foydalanish mumkin, ulardan proeksiya nuri o'tib turadi.

Proeksiya qo'llanganda tasavvurdagi chiziq bo'ylab sahnada aktyorlar harakati qat'iy chegaralandi, aks holda ularning soyasi ufqqa tushib qoladi. Mizansahnalarni aktyorlarni yoritayotgan projektorlar ufqqa tushmaydigan qilib o'rnatilish lozim, aks holda ular proeksiya tasvirini tarqatib yuboradi.

Bularning barchasi proeksiyani muvaffaqiyatli qo'llashga to'siq bo'ladi, faqat aktyorlar bilan repetisiya paytida mizansahna tuzilishi proeksiyadan foydalanishga to'sqinlik qilayotgani ma'lum bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. Yorug'lik proeksiyasining ahamiyati nimada?
2. Yoritish uskunalaridan foydalanishni qanday tushinasiz?
3. Yoritishda yorug'lik ranglari qanday taqsimlanadi?

Yorug'lik rejissurasida diapozitivlar

Proeksiyadan unumli foydalanish diapozitiv sifatiga bog'liq bo'ladi.

Oynadagi diapozitivlarni qo'lda yoki fotografik usulda bo'yab tayyorlanadi.

Qo'lda diapozitiv tayyorlash nixoyatda qiyin ish, u mahorat va ko'p vaqtini talab qiladi.


Diapozitivga tushirilgan 85x86 mm tasvir 100x50 marta kattalashtirilganda qanday ko'rinishida bo'lishini oldindan tasavvur qilish kerak.

Sahnada proeksiya uskunasi tomoshabinga ko'rinmasligi kerak, ammo undagi fokus va diapozitivni bimalol almashtirish mumkin bo'lsin. Bulardan tashqari proeksiya uskunasi nuri aktyorlarga tushmaydigan qilib o'rnatiladi. Bu talablardan kelib



chiqib, proeksiya uskunasi ob'ektivning optik o'qi ekranning perpendikulyar o'qi bilan mos o'rnatiladi, aks xolda proeksiya tasviri buziladi.

Diapozitivlar tayyorlashda ularni buzuq ko'rinishi mumkinligini hisobga olish zarur. Ularni to'g'ri tasvir beradigan qilib proeksiyalash zarur.

Ufq shakli va proeksiya uskunalarini teatrlarda joylashuvi bir xil emas, shuning uchun har bir teatr uskunasiga to'r chizib qo'yish kerak. Bunday diapozitivlar ekranda to'g'ri tasvir beradi. Bu to'r faqat mazkur uskuna uchun diapozitiv tayyorlashda qo'llanadi.



6-rasm. Teatr ufqi chizig'i



7-8 rasm. Teatr sahnasi uchun proeksiya diapozitivi chiziladigan to'r.

Teatrlar uchun foydalanadigan to'g'ri tasvirni ta'minlaydigan proeksiya diapozitivi to'ri 7,8- rasmlarda ko'rsatildi. To'g'ri tasvir beradigan diapozitiv rasmini yaratish uchun gorizantal liniyalar har bir teatrdagi tajriba yo'li bilan chizilish kerak.

Buning uchun toza diapozitiv plastinkaga to'g'ri kvadratli to'rni tush' bilan chizib chiqiladi, ularga tuzatish kiritish mumkin bo'lishi kerak. Chiziqlar reysfeder bilan chiziladi.

Turli diapozitivni ekranda proeksiya qilib, ba'zi noto'g'ri liniyalar aniqlanadi. Ufq perpendikulyar o'qidan qanchalik chetga chiqilsa to'r shunchalik buzilgan

ko‘rinadi.

Ufq xajmi proeksiya uskunasida nuri enidan katta bo‘lgan teatrlarda proeksiya paytida ikki yoki undan ortiq proeksiya uskunalardan foydalaniladi. Har bir proeksiya uskunasi tegishli to‘r chizilgandagina to‘g‘ri tasvir olish mumkin.

Butun ufqni qoplab olgan tasvir bir necha bor diapozitivga taqsimlanadi. Ularning chegarasi sezilib qolmasligini ta‘minlash lozim. Diapozitivlar kichik bo‘lganligi uchun ularni qo‘lda tayyorlash qiyin shuning uchun ularni emulsiya bilan qoplangan oynaga chiziladi. Emulsiya qoplangan oynani suvda eriydigan emulsiya, masalan, elim surib tayyorlash mumkin, fotoemulsiya qoplangan oynaga chizish uchun ma‘lum ko‘nikma va tajriba bo‘lishi kerak.

Diapozitivlarni qanday bo‘yoq yoki qanday usul bilan tayyorlash lozim, degan savolga javob berish qiyin. Bunga faqat malaka va tajribani oshib borishi bilan erishiladi.

Diapozitivlar tagidan yoritilgan yaltiramaydigan oynali stolda chiziladi. Stol qog‘oz yoki karton bilan qoplanadi. Ularga diapozitiv hajmida ochiladi. Shunda pastdagi yorug‘lik faqat diapozitivga tushadi va ko‘zga xalaqit bermaydi.

Diapozitivni bo‘yashdan oldin qog‘oz varog‘iga tegishli tasvir tushiriladi. Tasvir diapozitiv xajmida bo‘ladi. U kvadratlarga bo‘lib chiqiladi. Diapozitivga tasvir tushiriladigan anilin bo‘yoqlari suvda nihoyatda yaxshilab aralashtirilgan bo‘lish kerak. Tayyor diapozitivga himoya oynasi qoplanadi, chetlariga qog‘oz yopishtirib qo‘yiladi. Bu oyna diapozitivni tirnashdan asraydi.

Diapozitiv tayyorlashda tasvirning turli texnik usullaridan va xilma-xil bo‘yoqlardan foydalaniladi. Ekrandagi proeksion tasvir sifatli bo‘lishiga intilish lozim.

Osmonni proeksiyalash uchun diapozitivlarni qo‘lda chizgan ma‘qul. Unda aniq chiziqlar bo‘lishi shart emas. Fokusdan proeksiya uskunasi ob‘ektiv kiritish yo‘li bilan proeksiyalanayotgan bulutlarning yumshoq bo‘lishiga erishishi mumkin.

To‘p-to‘p bulutli osmon diapozitivni tayyorlash uchun oyna (12-rasm) yuzi ko‘k anil bo‘yog‘i bilan qoplanadi qurimagan anil bo‘yog‘ini burchak qilingan yumshoq qog‘oz bilan artib bulut tasviri olinadi. Buning uchun faqat shimgich qog‘ozdan foydalangan ma‘qul, u bo‘yoqni shimadida oynada quruq joy qoldiradi.



9-rasm. To‘p –to‘p bulutli diapozitiv



10- rasm me'yordagi fokusda to‘p-to‘p bulut proeksiyasi.

11-rasm. Fokusdan chiqarilgan ob'ektivda to‘p-to‘p bulutli preksiya

Bunday bulutlar konturini fokusdan foydalanib yanada yumshatish mumkin. Ufqni rangli soffit bilan yoritib osmon va bulutlarga zaruriy rang berish mumkin. 10-rasmda me'yordagi fokuslashda to‘p-to‘p bulutlar qo‘lda chizilgan diapozitiv proeksiyasi ko‘rsatilgan, 11-rasmda fokusdan chiqarilgan ob'ektiv ishlatilgan o‘sha diapozitivning proeksiya tasvirini ko‘rish mumkin, u fokusdan chiqarilgan ob'ektivdan bajarilgan. 12-rasmda kechki osmon diapozitivi tasvirlangan.



12-rasm. Kechki osmon diapozitivi.

Ufqdagi manzara keskin va aniq tasvirlanishi, osmon tasviri esa yumshoq va tumanli bo'lishi uchun bir kartina proeksiyasida ikkita proeksiya uskunasidan foydalaniladi. Bir uskuna manzara, boshqasi bilan osmon proeksiyalanadi. Buning uchun ikkita alohida diapozitiv tayyorlanadi. Bittasida faqat osmon qoldiriladi manzara noshaffof bo'yoq bilan qoplanadi. (13-rasm). Bu diapozitivni proeksiya qilganda ufqning manzara tasviri qismi yoritiladi. Boshqasida faqat manzarani qoldirib, osmon noshaffof bo'yoq bilan qoplanadi (14-rasm).




13-rasm. Faqat osmon chizilgan diapozitivda ikki proeksiya bilan ishlangan diapozitiv

14-rasm. Ikki proeksiya uskunasi bilan ishlangan faqat bir manzara qoldirilgan diapozitiv

Turli proeksiya uskunalari bilan hosil qilingan osmon va manzara tasviri ufqda bir kartina qilib birlashtiriladi. Bu holatda fokussiz proektsiyalash mumkin. Ikki uskunadan foydalanib manzara va osmonni alohida – alohida yorqinligini ta'minlash mumkin, ularni yorug'lik filtri yordamida turli ranglarda bo'yasa bo'ladi.


Ammo bir proeksiya uskunasi bilan foydalanib osmonni tumanli, manzarani aniq berish mumkin. Buning uchun bir diapozitiv plastinkasida manzara chiziladi, osmon bo'yalmay shaffof holida qo'yiladi. (15-rasm). Ikkinchi diapozitiv plastinkada osmon chiziladi (16-rasm) manzara o'rni shaffof qoldiriladi. Diapozitivlar proeksiya uskunasi ketma-ket qo'yiladi. Buning uchun proeksiya uskunasi qo'shimcha tirqish bo'lishi kerak.



15-rasm. Diapozitivlar bir proeksiya uskunasini bilan proeksiyalash uchun manzara chiziladi, osmon shaffof qoladi

16-rasm Diapozitivda bir proeksiya uskunasini bilan proeksiyalash uchun faqat osmon chiziladi, manzara bo'yalmaydi


Teatr amaliyotida aylanadigan bulut barabanidan foydalaniladi. Slindirga bulut chiziladi slindr ichidan yoritilgan ufq proeksiyalanadi. Slindr o'qi atrofida aylantirilganda bulutlar tasviri ufq bo'ylab harakat qiladi. Bulutlar ufqqa nisbatan gorizont va vertikal harakat qilishi mumkin. Buning uchun bulut borabani tegishli burchakka o'rnatiladi. 17-rasmda bulutlar gorizantaliga, 18-rasmda diogonal bo'ylab harakati tasvirlangan.




17-rasm. Bulutli baraban

Bulut baraban ikki yo'nalishda aylanishi mumkin, shuning uchun bulutlar har ikkala yo'nalishga yo'naltirilsa bo'laveradi. Baraban ichidagi yorug'lik kuchini uni aylanishini tartiblash mumkin. (minutiga 0 dan 6 aylanishgacha). Bu bilan ochiq osmonni bulut qoplashi tomoshabin ko'z oldida ro'y beradi.

Buning uchun ufqni dastlab faqat ko'k rang bilan yoritiladi. Ko'k rangga tartiblagichda baraban kiritib boriladi, bu bulut butun ufqni qoplab olguniga qadar davom etiriladi. Dastlab baraban sekin aylantiriladi, so'ngra aylanish tezligi ortib boraveradi, keyin proeksiya tasvirga zarur bo'lganda tez harakatga o'taveradi.



18-rasm. Bulut barabani yordamida bulutlarni gorizontal bo'ylab tasvirlash



19-rasm. Barabani yordamida bulutlarni diagonal bo'ylab tasvirlash

Bulutlar shaklini o'zgartirish, osmonning yangi ko'rinishini yaratish uchun silindrli diapozitivlarni uskunada almashtirish mumkin. Bunday diapozitivlar teatrda etarli miqdorda bo'lishi lozim. Silindrli diapozitivlarni almashtirish uchun ufq soffitini planshetgacha tushirish lozim. Boraban o'rnatilishi balandligi tartiblangan bo'ladi, baland ufqqa ko'tariladi, aks holda bulutlar manzara bo'ylab harakat qilishadi. Bu ayniqsa tog'li manzarani tasvirlashda zarur bo'ladi.

Bulutlar silindrning ichki tomoniga chiziladi. Bu tasvirlarni buzilishdan saqlaydi.

Bulut baraban ko'proq ufq soffitiga o'rnatiladi, shuning uchun tasvir odatda ufqning yuqori chetiga tushadi. Osmonda proektsiyalanayotgan bulut tasviri kichrayishi uchun, silindrning yuqori chetidagi bulutlar pastidagiga qaraganda yirikroq chiziladi.


Bulutlar hajmi sahna balandligi, ufq va bulut baraban orasidagi masofa va sahnaning boshqa xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, shuning uchun har bir teatrning o'zi bu xajmlarni o'zi belgilaydi.

Sahna ichidan zalga qarab suzib kelayotgan bulutni ifodalash uchun aylanuvchi silindr ufq oldidagi sahna planshetiga gorizontal holatida o'rnatiladi. U tomoshabin ko'zidan qandaydir bezak qismi bilan to'sib qo'yiladi. Silindr aylanganda bulutlar ufq bo'ylab pastdan yuqoriga harakat qiladi.

Osmondagi bulut harakatini diskli diapozitivlarda hosil qilish mumkin (20-

rasm). Disk proeksiya uskunasida oldida aylanganda bulutlar ufq bo‘ylab harakat qiladi. Bulutlar harakati yo‘nalishi diskli korobka uskuna oldida qanday o‘rnatilganligiga bog‘liq. Diskdagi bulutlar yopiq doirada chizilishi kerak (21-rasm). Silindr diapozitivi proektsiyalanganda ufqdagi bulutlar ko‘tarilib kattalashib boraveradi. Diskli diapozitivlarni yopiq osmon manzaralarida qo‘llangan ma’qul.

Diskli diapozitiv yordamida harakatlanayotgan bulutlarni yorug‘lik manzara bezagida ham tasvirlash mumkin. Bu ikkita uskuna bilan amalga oshiriladi. Bir proeksiya uskunasiga manzara tasvirlangan diapozitiv qo‘yiladi, osmon shaffof bo‘lmagan bo‘yoq bilan qoplanadi. Boshqa uskuna oldiga bulut tasvirlangan disk o‘rnatiladi. Birinchi uskuna ufq manzarasini proeksiya qiladi, ikkinchisi bulutni yoritadi. Ufqda bu ikki proektsiyali tasvir uyg‘unlashib bulut harakat qilayotgan manzaraning yaxlit kartinasini hosil qiladi.



20 – rasm. Gorizontol bo‘ylab harakat qilayotgan bulutlarni tasvirlash uchun diskli diapozitiv

21 – rasm. Vertikal bo‘ylab harakat qilayotgan bulutlarni tasvirlash uchun diskli diapozitiv

Tog‘ manzarasini tasvirlashda ham xuddi shu usulni qo‘llash mumkin. Bir diapozitivda tog‘ manzarasi chiziladi. (22 – rasm), unda osmon oq guash bilan qoplanadi, bu qism shu bilan noshaffof bo‘lib qoladi. Shuning uchun osmon ufqdan yoritilmaydi. Ikkinchi diapozitivda tog‘lar noshaffof oq guash bilan qoplanadi, osmon esa shaffofligicha qoladi. Bu diapozitiv harakatlanayotgan bulut diskli diapozitividan keyin o‘rnatiladi. Bulutlar faqat osmonga proektsiyalanadi, tog‘ manzarasiga bu uskuna nuri tushmaydi. Boshqa proeksiya uskunasi manzara ufqiga proeksialanadi. Natijada ufqda osmonda suzayotgan bulutli tog‘ manzarasi hosil bo‘ladi. (23 – rasm).



23-rasm Bulutli tog‘ manzarasi

22 – rasm. Ikki diapozitiv yordamida hosil qilingan tog‘ manzarasi.



Osmon diapozitivlarini tayyorlashni o‘zlashtirib, biz endi manzaralarga o‘tishimiz mumkin. Siluetlar yordamida manzara tasvirlash eng sodda usul hisoblanadi.

Tegishli siluet diapozitivga noshaffof bo‘yoq bilan chiziladi, osmon shaffof qoldiriladi. Ikkinchi diapozitivda osmon tasvirlanadi. Osmonni barcha diapozitivda bo‘lgan ufqqa proeksiyalanadi. Har ikkala diapozitiv bir proeksiya uskunasiga o‘rnatiladi: birinchisi tirqish diapozitivlari uchun mo‘ljallangan joyga, boshqasi 2-3 sm oraliqda qo‘shimcha tirqish joylashtiriladi.

Oddiy siluetlarni qaychi bilan qog‘ozdan kesib olish mumkin. Buning uchun oq chizma qog‘ozdan foydalangan ma’qul. Qora qog‘ozlar issiqlikni yutish xususiyatiga ega, shuning uchun diapozitivlar qizib yorilib ketishi mumkin. Qog‘ozdan kesib olingan siluet oyna plastinkaga elimlanadi (33 -rasm). 34-rasmda korxona kartinasi tasvirlangan.

Diapozitivlarni oyna plastinkaga o‘yib tayyorlash mumkin. Buning uchun noshaffof bo‘yoq bilan qoplangan oyna plastinka yoki toza yoritilgan fotoplastinkalardan foydalanish mumkin. Fotoplastinkalar yorug‘lik o‘tkazmaydi. Emulsiya bilan qoplangan plastinkaga qalam bilan tasvir tushiriladi. Bu tasvir asosida o‘tkir keskich yoki pichoq bilan talab qilingan tasvir tushiriladi. Plastinkada ingichka shaffof chiziqlar qoladi.

O‘yilgan fotoplastinkadagi tasvir anil bo‘yog‘i bilan bo‘yaladi.



24-rasm. Diapozitiv guash bo‘yicha o‘yish yo‘li bilan tayyorlangan

25 – rasm. Qog‘ozdan kesilgan diapozitiv silueti

25 – rasm. Qog‘oz siluetdan tayyorlangan diapozitiv

Guash bilan qoplangan diapozitivni ustidan bo‘yab bo‘lmaydi, negaki u oson erib ketadi. Buning uchun diapozitivni guash himoya oynasi tagiga qo‘yiladi. Bo‘yoq himoya oynasiga beriladi. Plastinkalar bo‘yalgan tomonini ichiga qilib bir biriga yopishtiriladi.

Bezaklarning sodda chizmalari bilan shartli ravishda bezatilgan sahnada rangli sellondan kesilgan diapozitiv muvaffaqiyat bilan qo‘llanishi mumkin.


Rangli sellondan tayyorlangan diapozitiv eskiz bo‘yicha o‘yiladi, so‘ngra u ikkita oyna o‘rtasiga qo‘yiladi. Ranglar sofliğini saqlab qolish uchun rangli sellondan diapozitiv inkrustasiya yo‘li bilan tayyorlanadi. Yangi rang olish uchun sellonning ikki tusidan foydalaniladi.

Rangli sellon diapozitiv xajmida kesilib tayyorlanadi. Agar tasvir uchun biror rang talab qilinsa, turli tusdagi sellon bir xilda kesib olinadi

Ochiq moviy havoni tasvirlash uchun moviy sellondan foydalanish maqsadga muvofiq. Tungi oyli osmonni tasvirlash uchun to‘q ko‘k sellondan foydalaniladi. Oyni sariq yoki to‘q sariq rangga bo‘yash uchun ko‘k sellondan hosil qilingan teshikka sariq yoki to‘q sariq sellon bo‘lagi qo‘yiladi. Qora tungi bulutlar sellon yoki himoya oynasiga noshaffof bo‘yoq bilan bo‘yaladi.

Mayda va ko‘p rangli tasvirlar bir necha diapozitiv plastinkalar yordamida hosil qilinadi. Agar diapozitiv ikki plastinkada bo‘lsa, ularning ichki qismiga tasvir tushirish lozim. Uchta bo‘lsa o‘rtadagisining ikki tomoniga chetdagilarning ichki tomoniga tasvir tushiriladi.

Yomg‘ir yog‘ayotgan holat ikki yoki uch proeksiya uskunasi bilan hosil qilinadi, bunda uskuna disklari turli tezlik bilan aylanadi. Bulardan tashqari uskunalar yorqinligi va yorug‘lik chiziqlari og‘ish burchagi turlicha bo‘lishi kerak. Uskunalarining yorug‘ligini doimiy o‘zgartirib turish yomg‘irni tasvirlashdagi eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.





27 – rasm. Yomg‘irni tasvirlash uchun radial to‘lqinli chiziqli disk

28 – rasm. Yomg‘irni tasvirlash uchun parallel chiziqli diapozitiv

29 – rasm. Chaqmoq tasvir uchun diapozitiv

Chaqmoq ham proeksiya yordamida tasvirlanadi. Chaqmoq ham yomg‘ir tasvirlanganidek emulsiyaning qora qatlamini tirnash orqali hosil qilinadi (29 - rasm). Chaqmoqli diapozitiv bilan proeksiya uskunasi bir lahzaga yoqiladi. Ufqda chaqmoq tasviri , bo‘lishi bilan osmon fonida go‘yo chaqmoq chaqadi. Chaqmoqni keyingi chaqishida uskunaga yangi diapozitiv qo‘yiladi va uskuna yangi joyga qaraydi.

Tutunni proeksiyalashda diskli diapozitiv qo‘llanadi. Tutun aniq ko‘rinishi uchun proeksiya uskunaga diapozitiv o‘rniga teshikli diafragma qo‘yiladi. Boshqa proeksiya uskunasi bilan tutunga olov proeksiyalandi (30-rasm). Bir paytning o‘zida uchinchi proeksiya uskunasi olovga yuqoriga qarab kengayib ketadigan tutun ustuni proeksiyalanadi (31-rasm). Bu uchta proeksiya tasvirini goh o‘chirib, goh yondirib, biri qizil olov, boshqa ikkitasi oq tutun bilan katta gulxan tasavvuri hosil qilinadi.




30-31 rasm Boshqa proeksiya uskunasi bilan tutunga olov proeksiyalandi.

Oy tutilishini tasvirlash uchun osmondagi oy boshqa proeksiya uskunasi bilan proeksiyalanadi. Metall parcha asta siljitilganda bir tomondan diapozitivdagi teshikni berkitib boshlaydi (32 - rasm). Metall parchasi yarim doira shaklida kesilganligi uchun oyda er soyasi o'tayotgandek tasavvur hosil qiladi. Harakatning oxirida metall parcha oyni to'la berkitadi. Uning harakati yana davom ettirilsa, oy asta ochila boshlaydi.

Parchani qo'lda siljitish ham mumkin, lekin buning uchun yaxshisi soat mexanizmi yoki elektromotordan foydalangan ma'qul. Parchaga mahkamlangan ip asta aylanayotgan valga ulanadi, u ipni o'rab asta parchani tortadi. Parcha harakatini aniq hisob-kitob qilishi kerak, shunda oyni tutilish vaqti spektakl davomida ko'zda tutilgan vaqtga mos keladi.

Himoya yo'liga keskin chiziqli soya hosil qilganligi uchun uning chetlarini zigzag qilib bukish yoki tishsimon qilib kesib qo'yish lozim. Oy butunlay qorayib ketmasligi uchun yoyuvchi parchani organik oyna, selluloid, slyuda yoki boshqa qandaydir shaffof materialdan tayyorlagan ma'qul, zarur bo'lsa u bo'yoq bilan qoplab qo'yiladi.



32 – rasm. Oy tutilishi diapozitivi

Oy tutilishi diapozitivi odatiy tarqoq oy yorug'ini o'rab turgan bulutga tushayotganligini hosil qilishi uchun osmonga tarqoq nurli proyektor yo'naltiriladi. Yorug'lik kuchi va yorug'lik dog'i maydoni talab qilinayotgan kayfiyat va osmonni bezatish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Osmondagi oy harakatlanayotgan bulutlar bilan goh yopilib, goh ochilib turgan osmon bezagi o'ziga xos muammo hisoblanadi. Bu muammoni ham proeksiya yordamida hal qilish mumkin. Diskli diapozitivga oq guash bilan bulutlar tasviri tushiriladi **33-rasm Diskli diapozitiv oy harakatlanayotgan bulutlar bilan**



Oy tasvirili diapozitivni tayyorlash uchun to'q ko'k, moviy yoki yashil tusdagi sellon bo'lagi olinadi. Teshik tekis bo'lishi uchun o'lchov sirkulidan foydalanish zarur. Teshikli sellon plastinka ikki oyna orasiga olinib diapozitiv hosil qilinadi. Osmonni

hosil qilish uchun diapozitiv proeksiya uskunasi oldiga qo'yiladi, oy diapozitivi esa o'sha uskuna tirqish o'rnatiladi. Shunday qilib, osmonni ikki diapozitiv bilan bir paytda yoritib, osmonda oy chambaragini olamiz, unda bulutlar yumshoq konturga ega bo'ladi.

Diskli diapozitiv aylantirilganda bulutlar oyga yopirilib bosadi. Diskli diapozitivga bulutlarni chizayotib oying joylashuvi hisobga olinishi kerak. Diskli diapozitivda bulutlarni tasvirlash ancha murakkab, negaki bunda diskning aylanish tezligini va sahna davomiyligini hisobga olish zarur. Bu holatda disk diapozitivli ikkinchi uskunadan foydalangan ma'qul, unga ham birinchi diapozitivdagi kabi bulutlar chiziladi. Ikki uskuna ishlatilayotgan paytda oy chizilgan uskunani asta o'chirish mumkin va shu paytda boshqasini yoqib qo'ysa bo'ladi. Tungi ufqdan bulutlar oy diskli diapozitivni yoqish zarurati tug'ilmagunicha oqib kelaveradi.

Ikki uskuna bilan proeksiyalanganda ba'zan birinchisini sekin aylantirib, ikkinchisini o'chirmay oy shu'lasi elas-elas o'tib turgan bulutlar tasvirini hosil qilish mumkin.

Nazorat savollari?

1. Proeksiya uskunasi qanday foydalaniladi?
2. Diapozitivlarni qanday usullar bilan tayyorlanadi?
3. Diapozitivdagi yorug'lik tasviri nima?.
4. Ranglar sofliqi qanday saqlab qolinadi?

Teatr va kino, televediniyada yoritish uskunalarining o'rni

Har bir spektakl uchun sahnani yoritishga to'g'ri munosabatda bo'lishsa, uni yorug'lik bilan bezashga tayyorgarlik jarayonida o'ziga xos yondashuv paydo bo'ladi va o'zgacha yorug'lik kompozitsiyasi yaratiladi. Bu bilan har bir yangi spektaklardagi yorug'lik uskunalarini joylashtirish, quvvat va yorug'lik bilan hosil qilinayotgan ranglar, spektakl davomida yorug'likni o'zgarish xususiyatlari ajralib turadi.

Spektaklning yorug'lik partiturasini katta ijodiy ishlar natijasida vujudga keladi. U sahnalashtiruvchi rassom tomonidan muallif p'esaning alohida kartinalarini yoritish haqida bergan ko'rsatmalarini diqqat bilan o'rganishdan boshlanadi. Sahnalashtiruvchi rejissyor o'z talabalarini qo'yadi. Bu talablardan kelib chiqib rassom asosan yoritish bilan bog'liq muommalar aks etgan eskizlar yaratadi.



34-rasm. Proeksion apparatni ishlatish jarayoni.

Sahnadagi repetisiya ishlari jarayonida spektaklni yoritgichlar bilan bezashga nisbatan yangidan-yangi talablar vujudga kelaveradi, ular rejissyorning badiiy niyatini repetisiyalar davomida aniqlashtirilaveradi. Natijada sahnadagi birinchi yorug'lik repetisiyasida bir qator aniq masalalar vujudga keladi, ularni faqat sahnani umumiy yoritish va u bilan uzviy bog'liqlikda hal qilish mumkin. Yangi spektaklni tayyorlash jarayonida yorituvchilar ishi p'esani o'qishdan boshlanadi, bunda ular dastlabki ma'lumotlar bilan tanishib oladilar.

Rejissyor va rassomning hamkorlikdagi ishi natijasida spektaklni yoritish bo'yicha aniqlangan talablarni amalga oshirish uchun bosh yorituvchi yorug'lik repetisiyalari boshlanguniga qadar tajriba yo'li bilan, zarur bo'lganda esa yoritish uskunalarini ko'paytirishi lozim. Yorug'lik repetisiyalari paytida buni amalga oshirishga kech bo'ladi.

Yoritish jamoasi ishining muvaffaqiyati ular avvaldan spektakl jarayoni bilan yaxshilab tanishib olishiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun yorituvchilar sahnadagi repetisiya ishlarini kuzatishari, mizan sahnani tuzilishi bilan tanishib olishlari lozim. Bundan ayrim ko'rinishlar va butun spektaklni yoritish imkoniyati aniqlashtiriladi, spektakl davomida sahnani yoritishda o'zgaradigan lahzalari belgilab olinadi.

Yoritish repetisiyasida har bir yorituvchi o'z vasifasini yaxshi biladi. Bu holatda yoritish repetisiyasi spektaklni yaxshi o'ylangan yoritish bezagi tuzilishi bo'lib qoladi, bunda har bir uskuna o'ziga tegishli vazifaga ega bo'ladi va har bir uskunadan muvofiq ravishda foydalanilganda sahnaning barcha yoritish uskunalari spektakl talablariga ko'ra o'zgaradi (sveto mantarovka). Yoritish repetisiyalari qanday o'tkaziladi?

Yoritish repetisiyasiga kadar sahna bezaklari to'la yig'ib bo'linishi kerak. Pardalar, mebel va barcha yoritish uskunalari o'z joylariga aniq o'rnatilgan bo'lishi kerak. Shtativdagi projektorlar, lampalar va zaruriy uskunalar avvaldan ishlab chiqilgan reja bo'yicha joylashtiriladi.

Qarong'i sahnaga har bir uskuna alohida yoqiladi va to'g'irlab tartibga solinadi.

Yorituvchilar har bir uskuna o'z vazifasini to'g'ri bajara olishi, keraksiz va halaqit beruvchi soyalar paydo bo'lib qalmasligi, uning chirog'i tegishli joyini qamrab olayotganligini yahshi bilishi kerak.

Har uskuna o'z o'rnida o'rnatilganda yorituvchilar ularning vazifasini aniq belgilab oladi, ularning har birining yorug'lik dog'lari yo'nalishini to'g'irilaydi, bu bilan yorug'lik nurini tegishli joyga yo'naltirish imkonini paydo bo'ladi. Ayni paytda alohida aktyorlarni yorituvchi qo'shimcha uskunalar o'rnatiladi va tartiblanadi, ularning yorug'lik nurlarining kengligi va quvvati tekshirib qo'riladi.

Uskunalarni tanlash, tartiblashda pultidan boshqarish qulayroq bo'lishini hisobga olish zarur. Yorug'lik manbalarini montaji paytida sahnani yoritish ustida ishlayotgan xar bir mutaxassis orasida telefon yoki mikrafon yordamida bevosita aloqa o'rnatilish lozim.

Yorituvchilar uchun ishga xalaqit bermaydigan bir naushnikli telefonlar ayniqsa qulay bo'ladi. Yorituvchilar orasida to'g'ridan -to'g'ri aloqa ularga yoritish repetitsiyasi paytida vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalarni kuzatish imkonini beradi.

Yorituvchi uchun ish bo'yicha o'z hamkasablari vazifalarini bilishi va vazifalar maqsadlarini tushinishi nixoyatda muhim. Rassom o'z eskizlarida rejissyorning talabalarini hisobga olib spektaklni yoritish bezaklarini ijodiy ishlab chiqadi. Bosh yorituvchi o'z jamoasi bilan spektaklning yoritish ishini amalga oshiradi. Yorug'lik uskunalari o'rnatilgan, tegishli joyga yo'naltirilgan va boshqa taiyorgarlik ishlari tugatilgandan keyin mazkur ko'rinish yoki sahna uchun zarur bo'lgan yoritish ishlari hafsala bilan bajariladi. Bu ishlar asosan markaziy pultdan uskunalarni asta sekin ketma-ket yoqish bilan amalga oshiriladi.

Tomosha zalidan yorug'lik bezaklarga va aktyorlarga qanday tushishi kuzatib turiladi. Sahnani yoritish o'z maromiga ega bo'lguniga qadar yoritish nuqtalaridagi yoritish kuchlari va ularning rangiga doimiy ravishda tuzatishlar kiritib boriladi. Lekin bu qorong'i sahnani barcha yoritish nuqtalaridan bir xildagi yorug'lik bilan yoritish degani emas.

Sahnani tegishli tarzda yoritish uchun u yoki bu yoritish asboblari yorug'lik kuchini tinimsiz kuchaytirish yoki kamaytirish zarur bo'ladi. Har bir yorug'likni montajlashda to'g'ri chegarani topish nihoyatda muhim ish hisoblanadi. Bu badiiy didni va yoritish uskunalarini yaxshi bilishni talab qiladi. Bu bosqichda topilgan spektaklning yorug'lik kompozitsiyasini darhol belgilab qo'yishi kerak bo'ladi, bunda tartiblagich dastagi holatiga belgi qo'yiladi. Sahna rejasida shuningdek foydalanilgan ko'chma yoritish uskunasi joylashuvi, turi va rangi belgilab qo'yiladi.

Alohida ko'rinishlarni yoritish uchun qo'llanadigan stasionar uskunalar ularning nomeriga qarab belgilanadi. Bu sohada teatrlarimizda yakdil tizim mavjud emas. Ba'zan stasionar yorug'lik nuqtalari umumiy nomerlanadi, ba'zan esa ular har bir yoritish guruxi bo'yicha alohida nomerlanadi (yoritish ko'priklari, yoritish lojalari va boshqalar).

Yoritish uskunalarining egilish burchagi va yoʻnalishi har bir projektorda boʻlgan shkalalarga qarab belgilanadi. Shu tarzda tartibga solingan va aniqlangan yoritish spektaklni asosiy yoritish ishi sifatida qabul qilinadi. Bunda ham spektaklning ayrim kartinalari yoki koʻrinishlaridagi yorugʻlik oʻzgarishlari kerak boʻlganda belgilab qoʻyiladi.

Yorugʻlikni montajlashda yorugʻlik oʻtish joyi asosiy yoritish doirasidan chiqib ketmasligini nazorat qilish lozim. Yoritish ishi mantiqli va ketma-ket tuzilsa yorituvchilar ishi engilroq amalga oshadi. Birinchi montajli yorugʻlik repetisiyasini oʻtkazilganidan keyin rejissyor va rassom yorituvchilar ishi bilan tanishishlari lozim, uni tasdiqlashlari yoki tegishli tuzatishlar kiritishlari mumkin, keyingi montaj repetisiyasida esa (aktyorlar bilan) rejissyor koʻrsatgan kamchiliklar bartaraf etiladi. Libos kiygan aktyorlar yorugʻlik montaji chogʻida sahna boʻylab rejissyor tomonidan tuzilgan mizan sahnaga koʻra harakat qilsa yaxshi boʻladi.

Yorugʻliq repetisiyasi paytida liboslar toʻgʻri yoritilishi zarur boʻladi. Aktyorlar ishtirokidagi yorugʻlik repetisiyasida sahna bezagini yoritish aktyorlarni yoritish bilan uygʻunlashtiriladi. Shu yoʻl bilan birinchi bosh repetisiyaga qadar yorituvchilarning uzluksiz va bexato ishi taʼminlanadi, negaki bu paytga kelib odatda yoritish masalalari hal qilingan boʻladi va repetisiyani toʻxtatish zarur emas. Albatta bosh repetisiya paytida ham nimalarnidir tuzatishga toʻgʻri keladi. Tomoshabin uchun tayyor darajadagi nazorat spektaklidan keyin odatda amalga oshiriladigan spektaklni yoritishning barcha detallari tegishli belgilar bilan yakuniy tarzda belgilab qoʻyiladi.

Spektakldagi yoritishga tegishli boʻlgan aniqlovchi yozuvlar ulardan keyinchalik xam ayrim yoritish uchaskalarida foydalanish imonini beradi. Bu yozuvlar asosida tuzilgan spektaklni yoritishning umumiy tuzilishi sxemasi uning yorugʻlik partiturasini xisoblanadi.

Spektakl uchun ishlab chiqilgan partitura boʻyicha keyingi takrorlanadigan spektakllarni yoritish ishi tashkil qilinadi va yorituvchilar ishining aniqligi tekshiriladi. Spektakl paytida sahnani yoritish tartiblagich yonida ishlayotgan yorituvchining oʻz vazifasini qanday bajarishiga bogʻliq, garchi spektakl yorugʻligi partiturasini aniq va batafsil yozib olish mumkin boʻlsa-da shunga qaramay sahnani yorituvchidan katta ijodiy tajribani, chiroqni aktyorning sahna boʻylab harakatini moxirona yoritishi yordamida bajariladigan harakatlarni talab qiladi.

Tartiblagichni sahnada boʻlayotgan voqealarga ijodiy yondashuvi talab qilinadi. Tartiblagichning markaziy pultidan yoritkichni boshqarish tomoshabinga sezdirmay amalga oshirilishi va tegishli kayfiyatni yaratishi zarur boʻladi. Buning uchun tartiblagich xonasidan sahnada boʻlayotgan voqealar toʻlaligicha koʻrinib turishi kerak. Bu soxada tartiblagich xonasidan sahna oldi yonida, sahna poli tagida yoki sahna ravogʻida joylashtirilishi yorituvchilar ishlashi uchun maʼqul sharoit yaratmaydi. Tartiblash xonasi tomosha zalining orqa tomonidan joylashgan, teatrlarda yorituvchilar yaxshi sharoit boʻladi. Portal koʻprigi, yoritishi koʻprigi, sahna plansheti, yoritish

lojalari singari yoritishning boshqa manzillarida o'zlarining ixtiyoridagi uskunalarini to'g'ri yo'naltirilishi va rangini nixoyatda diqqat bilan kuzatishlari zarur. Spektal paytida yorug'lik o'zgarganda yorituvchilar chiroq filtrlarini o'z vaqtida almashtirishi yorug'lik nuri yo'nalishini tartiblashi lozim bo'ladi.



35-rasm. Portal ko'prigiga o'rnatilgan proyektorlar.(yoritgichlar).

Proyektor nurlari sahna bo'ylab harakat qilayotgan aktyorn, yaratilayotgan spektakillarda yorituvchining aniq ijodiy e'tiborini talab qiladi.

Yorituvchi proyektor nuri aktyorni yoritib turishi uchun u qayoqqa qarab yo'nalishini bilib turishi lozim. Bu xolatda yaxshi yo'naltirilgan nur tomoshabinga xalaqit bermaydi. Projektor nuri goh uzib, goh, orqada qolib aktyorni qidirganda tomoshabin e'tiborini chalg'itadi. Odatda yoritish lojasi yoki portal ko'prigidan aktyorni proyektor nuri bilan doimiy yoritib turiladi. Shu narsa aniqki projektorning o'rnatilgan joyi sahna bo'ylab nur harakatini cheklab qo'yadi va nur aktyorni sahna bo'ylab kuzata olmaydi.

Masalan: aktyor portal ko'prigi tagida oldinga chiqsa uni portal ko'prigidan proyektor bilan yoritib bo'lmaydi.

Aktyorni yoritish endi lojadan davom ettiriladi.



36-rasm. Tartiblagich xonasi shu erdan sahna chiroqlari boshqariladi.

Yorug'likni bunday o'tishini sezdirmay amalga oshirish mumkin. Buning uchun lojadan projektor nuri kerakli joyga avvaldan yo'naltirib turiladi va aktyorning o'zi nurga qarab chiqib boradi. Aktyorni boshqa projektor nuri topguniga qadar bir qadar vaqt yoritilmay qolishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ba'zan aktyorlarni yorug'likning ingichka nuri bilan yoritiladi, bunday projektordagi chiroqni oldinga yoki orqaga siljitish bilan hosil qilinadi. Bundan ko'pincha projektorning qizigan iplari o'z aksini topadi. Bunday nur aktyorni bir tekisda yorita olmaydi.

Projektorga proeksiya lampasini o'rnatayotib shu narsa e'tiborga olinishi kerakki, chiroqning qizil iplari aksi qaytishda iplarga emas, balki ularning orasiga tushib turadigan bo'lsin. Projektorni tekshirib ko'rish uchun nurlari devorga yo'naltiriladi qizil iplar tasvir devorida yorug'likning tekis to'rtburchak dog'iga aylangunicha qadar projektor chirog'ini oldinga siljitib va orqaga yoki o'z o'qi atrofida aylantirib sozlanadi.



37-rasm. Chap lojaga o'rnatilgan yoritish uskunlari.

Bulardan tashqari projektorni bunday to'g'ri sozlanishi chiroqni uzoq xizmat qilishiga imkon beradi. Negaki qiziyotgan spiraldan nafaqat yorug'lik aksi, balki u chiqarayotgan issiqlik aksi ham tushib turadi, shuning uchun lampa uchun ko'zda tutilgan qizish me'yori ortib ketadi va u tez kuyib qolishi mumkin.

Uzun fokus ob'ektivli projektor bilan aktyorni yoritish chog'ida nur qat'iy chegaralangan doira shaklida bo'ladi. Bunday nur aktyorni qadamba-qadam aniq ta'qib qilishi kerak, negaki nur harakatdagi arzimagan noaniqlik ham tomoshabinga sezilarli bo'ladi. Agar projektorda tishli doira teshikli diagrammadan foydalanilsa, yorug'lik dog'i chegarasini yumshatish mumkin.

Aktyorni rangli yorug'lik bilan yoritish uchun odatda ikkita projektordan foydalaniladi. Rangli projektor aktyorni to'la yoritadi, boshqasi oq yorug'lik bilan faqat aktyor yuzini yoritadi. Ikkita projektor bilan aktyorni ta'qib qilish qiyin, baribir noaniqlik paydo bo'ladi. Shuning uchun bunday holatda to'g'rirog'i projektordan foydalangan ma'qul, uning o'rtasida tegishli yorug'lik filtri o'rnatiladi. Bunday yorug'lik filtri bilan yortilganda o'rtasidagi oq yorug'lik nuri asta rangli bo'lib qoladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan sahnani yoritish bilan bog'liq ayrim muammolar ham spektaklni badiiy bezagida yorug'likning ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatib turibdi.

Zarur bo'lganda yorug'lik yo'nalishi kuchini va yorug'lik uskunolari rangini o'zgartirib, ulardan turli kombinasiyalarda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olib sahnani yoritish imkoniyatlari nihoyatda boy ekanligini ta'kidlash mumkin.

Spektalni sahnaga qo'yish paytida yoritish bilan bog'liq muammolarni hal qilish eng avvalo yorituvchi mutaxassislariga bog'liq. Ular teatr jamoasi repetisiya paytida yaratgan spektaklning yorug'lik kompozitsiyasini amalga oshiradi. Agar yorituvchilar vazifalarini mexanik tarzda bajarsalar sahnani yoritishda nuqson bo'lishi tabiiy. Spektaklning yorug'lik partiturasida yorug'lik o'tish qanchalik aniq yozib qo'yilmasin, uni ishga ijodiy munosabatda bo'lmay bajarish qiyin.

Yoritish uskunolari uzluksiz bexato ishlashi uchun ularni doimiy ravishda ko'zdan kechirib turish zarur. Projektorlar, yorug'lik filtrlari, ob'ektivlar, dipozitivlar va boshqa uskunalarni to'g'ri kelgan joyda saqlab bo'lmaydi. Ma'lum vaqtda foydalanilmaydigan yoritish uskunasi maxsus xonada saqlash lozim.

Yorug'lik filtrlarini tegishli rangini topish oson bo'lishi uchun ranglarga ajratib maxsus tokcha yoki yashiklarga o'rnatib qo'yiladi. Ob'ektivlar chang kirmaydigan g'iloqlarda saqlanadi, diapozitivlarni oynada panja izlari qolmasligi uchun chetdan ushlab chiqarib olish mumkin bo'lgan korobkalarga solinadi.

Turli noxush vaziyatlarning oldini olish uchun yoritkich uskunalaridan foydalanishdan avval yahshilab tekshirib chiqish kerak. Stasionar yoritish asboblari ham doimiy ravishda ko'zdan kechirib tozalab turish zarur. Projektorlarning linzalari, ob'ektivlari va chiroqlarini toza saqlab, doimiy ravishda changdan tozalab turish lozim. Har bir spektakl oldidan ularni yumshoq cho'tka bilan artish, changini siqiq havo oqimi bilan tozalab turishni odat tusga kiritish zarur bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Teatr va kino-televedenie yoritish uskunolari qanday ahamiyatga ega?
2. Yoritish jarayonidagi talablar.

3. Yoritish montajining xarakteristkasi.
4. Yoritish repetisiyalari qanday o'tkaziladi?

Sahnada soya (yoritish qonunlari va ularning xarakteristiklari)

Sahnani yoritganda albatta soya vujudga kelishini hisobga olish zarur. Sahnani yoritish bilan bezashda turli xildagi yorug'lik manbalari qo'llaniladi.

Ular yoritilayotgan ashyolarga soya beradi. Fovqulodda va muvaffaqiyatsiz tuzilgan yoritishda vujudga kelgan bir xildagi soyalar aktyorlar va bezaklarni buzib ko'rsatadi, sahnada rejissyor va rassomga halaqit beradi. Boshqalari esa ongli ravishda tuziladi va butun sahna ko'rinishiga badiiy ifodaviylik baxsh etadi. Bu holatda soyalar spektaklda tasviriy rolni o'ynaydi va ko'pincha harakat uchun yahshigina qo'shimcha bo'lib qoladi.

Sahnadagi soyalar miqdori yorug'lik nuqtalari soniga mos keladi. Soyalar kattaligi yorug'lik manbasining joylashgan o'rnini va turiga, quvvat esa yorug'lik manbai va yoritilayotgan ashyolarning orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi. Sahnani yoritish uchun yorug'lik nuqtalarini tanlash va o'rnatishda bularning barchasini e'tiborga olish zarur.

Yoritish uskunalaridan shunday foydalanish kerakki, ularning nuridan hosil bo'lgan soyalar bezaklar orasiga tushsin va tamoshabinga ko'rinmasin. Biz ko'pincha aktyorlarning soyalari sahna orqasiga osmonga yoki tasvirdagi uzoqlarga tushayotganligini ko'rib qolamiz. Asosan yoritishning soffit tizimi qo'llaniladigan teatrlarda sahnada soyalar paydo bo'lishi masalasi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Butun sahna bo'ylab tarqatib yuborilgan kamerali soffitlar bezaklar va aktyorlardagi soyalar kuchini susaytirib qo'yadi, ammo ayni paytda bunday yoritish yorug'lik aniqligini yo'q qiladi, uni umumiy yorug'likka aylantirib qo'yadi. Umumiy yuzaki yoritishda mizansahna bo'rtmasi va sahna bezaklari xajmi yo'qoladi.

Sahnada turg'un yoritish manbasini qo'llab bundan qutilish mumkin, ammo bunday yoritish albatta qarama-qarshi soyalar berishini unutmash kerak. Shuning uchun spektaklni yoritish bezagida projektorlarni shunday tanlash va o'rnatish kerakki yoritilayotgan ashyolardan vujudga kelayotgan soyalar zaldan ko'rinmaydigan bo'lsin. Soyalar bezaklarga shunday tushirilishi kerakki, oldindagi bezaklar ularni tomoshabin ko'zi tushmaydigan qilib berkitib tursin. Buning uchun bezaklar asosan yuqoridan yoki yonidan yoritiladi.

Agar bezaklardagi soyalarni olib tashlashning iloji bo'lmasa, ular tushayotgan


bezakni alohida yoritib soyalarni yumshatish va susaytirish zarur bo'ladi. Bezaklarni rassom ko'zda tutmagan soyalardan qutqarish qiyin emas, negaki spektakl paytida bezaklar va yoritish manbalarining bir-biriga nisbatdan joylashuvi nisbatan o'zgarmaydi.

Aktyorlarning tinimsiz harakatda bo'lgani va ular orqasidan projektorlar doimiy ta'qib qilib turgan paytda soyalardan qutilish ancha qiyin. Rejissyor shu narsani yodda tutish va esdan chiqarmasligi kerakki, texnik qism xodimlari va yorituvchilar tegishli zaruriy sharoitlar yaratilgandagina ular spektaklni badiiy bezashga ijodiy yondashuvi mumkin. Shuning uchun bosh repetisiyagacha yoritish masalalari asosan kelishib olingan bo'lishi, shuningdek yoritish qurilmalarining zaruriy guruhlarini tugallangan bo'lishi kerak.

Agar o'ylanmay va shoshma-shosharlik bilan ish yuritilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Aksincha, ba'zan mavjud imkoniyatlardan ham foydalanilmay qolinadi. Nafaqat rassom va yorituvchi, balki bosh repetisiya paytida sahnani yoritishga yordam berishga uringan, spektaklni yoritishning kompleks sxemasidan kelib chiqmagan rejissyorlar ham muvaffaqiyatsiz yorug'lik bezatishi aybdorlari bo'lib qoladi.

Sahnada soyalar yorug'lik manbai joylashgan o'rniga bog'liqligini e'tiborga olib, biz yoritish nuqtalari uchun maqbul joy tanlab, nomaqbul soyalarni paydo bo'lishini oldini olishimiz mumkin. Masalan, sahnada o'rnatilgan vertikal bezaklarni shunday balandlikdan yoritish kerakki, ularning o'zlari o'z soyasini berkitib qo'ysin.

Yoritish nuqtasi bezakning yuqori chetidan qanchalik baland bo'lsa, soya shunchalik qisqa bo'ladi. Ko'pincha manzara kartinalarida ufq oldidan o'rnatilgan chet bezaklarni yoritishda ufqqa tushayotgan soyani yorituvchilar bartaraf etolmaydi. Ufqdagi soyalar bezaklar sahna poliga o'rnatilgan rampalar, ya'ni ufq fonari "Pf - 1" yoki "NP - 2" yoritish uskunasi bilan yoritilganligi uchun paydo bo'ladi. 38 - rasmda zaldan ko'rinadigan soya sxemasi ko'rsatilgan. Ufq va manzara kartinasi raxi orasida joylashgan yoritish uskunalarini bu soyalarni to'la yo'qota olmaydi.



38-rasm Sahnada poliga o'rnatilgan rampa yoritish uskunasi.


Nazorat savollari :

1. Yoritishda soyaning roli qanday?

2. Yoritish soffitni qo'llanilganda sahnada soyalar qanday paydo bo'ladi?
3. Sahna yoritishda rejissyor va rassom roli

Soyani yorug'lik manbasi yordamida aks etish

Bunday holatlarda portal ko'prigida o'rnatilgan projektorlar yordamida bu bezaklarni yoritish yaxshiroq natija beradi. Shunda sahnada keraksiz soyalar vujudga kelmaydi (39-rasm).



39-rasm. Yuqoridan projektor nuri yordamida sahnani yoritish.

Yuqoridagi yorug'lik manbasi yordamida sahna orqa devorida soyani aks ettirish mumkin bo'ladi.


Yoritish ishi bunday tashkil etilganda portal ko'prigi sahnani yotish bezagining nihoyatda qudratli uchastkasiga aylanadi, negaki boshqa bezak qismlari va aktyorlar ham shu erdan yoritiladi, bu erda sahnani umumiy yoritish projektorlari joylashtiriladi va proeksiya uskunalari yordamida xizmat ko'rsatiladi.

Portal ko'prigida joylashgan projektorlar sahna bezaklarini yoppasiga yoritadi. Bunday yoritishda bezaklar yuzasidagi kamchiliklar (bukamlar, chuqurliklar, bo'rtiqlar) sezilmaydigan bo'lib qoladi. Ayni paytda bezaklar yuqoridan yoki yon tomonidan yoritilganda bezaklardagi kichkina notekislik ham soya hosil qiladi va bezak bo'ziladi.

Sahnada osmon ko'rinishini hosil qilish uchun manzara bezagi orqasiga rampalar o'rnatiladi. Rampalar osmonni muhim yorug'lik bilan yoritadi. Xar bir rampa ustidagi yorug'lik ularning orasidagidan kuchliroq bo'ladi, shuning uchun tomosha zalidan xam mazkur manzara uchun nechta rampadan foydalanilganligini hisoblab mumkin. Osmonni tekis yoritish uchun ufq chizig'ida manzaralar yoritiladigan


projektorlardan foydalanish mumkin.

Osmonning pastki chetini yoritish uchun ularning yorug'ligini qirg'oqning yuqori chetida balandroqqa yo'naltirishi zarur. Osmonga projektordan dumaloq yorug'lik dog'i tushmasligi uchun unga cho'ziqroq gorizontal teshikli to'siq qo'yiladi. To'siq parchalaridan iborat bo'ladi, ular bir-biriga kiritilishi mumkin (40-rasm)



40- rasm. Nur xajmini tartiblash uchun to'siq

Parchalar yorug'lik teshigi markazidan yuqoriga va pastga qarab ochiladi, bu projektorning yorug'lik quvvatidan maksimal foydalanish imkonini beradi. Bo'nday tartiblanadigan to'siqlar yordamida zarur bo'lgan paytda projektor yorug'lik teshigini osongina tartibga solish mumkin. Bulardan tashqari, aynan bir projektor bilan manzarani bir rangda osmonni boshqa rangda yoritish mumkin. Buning uchun ikki xil rangdagi yorug'lik filtri olinadi. Masalan, agar manzara to'q sariq, osmonning pastki chetini pushti rangda yoritish zarur bo'lsa, projektorga xuddi shu ranglardagi yorug'lik fil'tri o'rnatiladi (41-rasm). Manzara to'q sariq, osmonning pastki cheti pushti rangda bo'ladi. Bunday yorug'lik fil'trlari turli ranglarda bo'lishi mumkin, spektakl yorug'lik bezagida ulardan foydalanishi juda yaxshi natija beradi.



41- ras. Ikki rangli oyna sellonlardan iborat yorug'lik filtri.

Ikki rangli oyna sellonlardan iborat yorug'lik fil'tridan osma bezak, kulis va boshqalarni yuqoridan pastga yoppasiga yoritish mumkin bo'lmasa, pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga yon tomonidan yoritishda foydalanish zarur. Bezaklar shunday yoritilishi kerakki, bunda soyalar bezaklar orasiga tushsin yoki maydondan chiqib kulislar ortiga o'tib ketsin. Yuqoridan pastga yondan yoritish uchun sahnaning yon ishchi ko'priklaridan foydalaniladi. Pastdan yuqoriga yon tomondan yoritishda projektorlar sahna planshetiga o'rnatiladi. Agar yoritishni talab qiladigan bezaklar o'ta yaqin bo'lsa, ularni odatda sahnaning qarshi tomonidan yoritiladi. Yorug'lik nuqtalari o'rnini shunday tanlash kerakki, bunda nurlar yoritilayotgan bezaklarga o'tkir burchakdan tushsin. Projektor nuri bezakka tushishi burchagi qanchalik kam bo'lsa, uning ustidagi notekisliklar shunchalik aniq ko'rinib qoladi. Rangtasvir bezaklariga tushayotgan soyalar odatda rangtasvir vositalari bilan hosil qilingan xajmdagi xalaqit beradi, katta xajmdagi bezaklarni yoritishda ijobiy samara olish mumkin. Katta xajmdagi bezaklarni yoritganda vujudga keladigan soyalar ularni bo'rtiqligini ta'kidlaydi, shaklini ochib beradi. Ko'pincha katta xajmdagi yoki rangtasvir bezaklar(ustun, balyustrada, daraxtlar tanasi va boshqalar) sahnada yassidek ko'rinadi. Bu ularni yalpi yassi nur bilan yoritishdan kelib chiqadi. Katta xajmdagi bezaklar kuchli bir tomonlama yondan beriladigan nur bilan yoritilishi zarur, u ularga ifodali yorug'lik-soya beradi va ularning bo'rtiqligini ta'kidlab turadi.

Ijrochi shaxslarni yoritishda qo'yidagi ikki prinspidan kelib chiqish kerak: yalpi yoritish tomoshabinga aktyor ijrosi va mimikasini etkazish imkonini beradi, yondan yoritish aktyorni bezaklar fonida bo'rttirib yoritadi. Faqat yalpi nurda mizan sahna va ommaviy sahnalar bir plani yassi bo'lib qoladi. Tomoshabin ko'z oldida sahnaning cheklangan yuzasidan keng makon tasavvurini hosil qilish uchun sahnaga ko'ndalang tushayotgan nurdan foydalanish mumkin.

Aktyor sahna ichidan oldingi planga yoki aksincha harakat qilayotib sahnaga ko'ndalang tushayotgan nurdan o'tadi va tekis yoritilgan sahnaga nisbatan bunda u katta makonda harakat qilayotgandek bo'ladi. Ko'ngdalang tushayotgan yorug'lik nurlari projektorlardan kulis yoki bezaklar orqasiga o'rnatilgan projektorlardan yo'naltiriladi. Projektorlarni kulisdan iloji boricha uzoqroq o'rnatish zarur, shunda projektorlarning yorug'lik nurlari aniqroq ko'rinishga ega bo'ladi, bunda ularni bir tomondan kulis bilan keskin chegaralash kerak.

Projektor nur bog'lanishini ko'rinishi qanchalik keskin bo'lsa, shunda aktyorni bir nurdan boshqasiga o'tishi sezilarliroq bo'ladi. Projektorlar ko'ndalang nurni yuqorida tasvirlangan sahnada foydalanishda sahna ko'rinishining aniq sharoiti bilan asoslash mumkin, ya'ni nurlar derazadan, daraxt shoxlari orasidan va boshqa joylardan tushib turadi. Masalan, derazadan tushadigan yorug'lik nurlarini tasvirlash uchun projektor oldiga deraza maketini qo'yish mumkin. Deraza maket

projektorlaridan qanchalik uzoq bo'lsa, uning soyasi shunchalik keskin bo'ladi. Bunday yorug'lik - soyalarini yaratish uchun boshqa proeksiya asboblaridan ham foydalanish mumkin. Faqat tegishli shakldagi nur hosil qilinadigan diopozitivlar tayyorlansa bo'lgani. Bunday konkretlashtirilgan yorug'lik nuri tasviri sahna bo'ylab harakat qilayotgan aktyorlarga tushib ularning bo'rtmaligini yanada ko'proq ta'kidlaydi. Aktyorlarni yonidan kuchli nur bilan yoritilganda ularning soyasi partnyorlarga tushib qolish xavfi bor.

Agar rejissyor bu sahnada yorituvchilar bilan maslaxat qilib mizansahnani dioganal tuzsa, bunday xolatni bartaraf etishi mumkin. Shunda soyalar partnyorlarga tushib qolmaydi. Yorug'lik soya muammosi aktyorni yoritish masalasida muhim muammlardan biri hisoblanadi. Yaxshi tashkil etilgan yoritish ishi yordamida aktyor qomatini uning libosi va grimini burtma yoritish mumkin, u yaratayotgan obrazining butun ifodaviyligi ko'rinadi. Muvaffaqiyatsiz yoritish esa aktyor qomatini buzadi, uni yassi va ifodasiz qilib qo'yadi. Yaxshi fotoportret ishlash uchun inson oldi va orqasi, yoni yuqoridan va pastdan barcha tomonidan yoritiladi. Fotoportretning bo'rtmaligi u yoki bu yorug'lik manbai quvvati, uning nurining yo'nalishga bog'liq bo'ladi. Aktyorlarni sahnada yoritishda ham ana shu prinsiplar ish beradi. Bu maqsad uchun foydalaniladigan har bir uskuna aktyorni yoritish nuqtai nazaridan eng yaxshi joyga o'rnatilishi lozim. Har bir asbobning yorug'lik tarqatishi imkoniyati batafsil o'ylangan va tartiblangan bo'lishi kerak, faqat shu xolatdagina aktyorlar haqiqatda yaxshi yoritilgan bo'ladi. Ayni paytda biz hozirgacha yuzlari yuqoridan yoritish bilan buzilgan, ko'zlari qorong'ilashib tushib ketgan, burun, jag'dan yoqimsiz soya tushib turgan aktyorlarni ko'rganimizcha yo'q.

Aktyorni yalpi, to'g'ridan yoritishdan ham mumkin, Yuqorida ta'kidlanganidek, spektaklda yorug'likni noto'g'ri taqsimlanishi aktyorlarni yomon yoritilishi sabablaridan biridir, bu yorug'likdan maqsadga muvofiq va badiiy foydalanishni cheklab qo'yadi. Ko'p holatlarda bunga yorug'lik repetisiyalari kam o'tkazilganligi yoki yorituvchilar tajribasini kamligi sabab bo'ladi.

Sahnani badiiy bezashda sahnani yoritishning ahamiyati yildan- yilga ortib bormoqda. Mualliflar o'z fikrini avvalgidan ko'ra xilma-xil shaklda ifodalashga intilayotgan dramaturgik asarlar ko'paymoqda. Teatrlarning yoritish uskunolari ham kupayib, takomillashib bormoqda. Yoritish rejissurasi repetisiyasi uchun esa avvalgidek va undan ham kamroq vaqt ajratilmoqda. Odatdagi, noshaffof bezaklarda soyalar oldindan, shaffof bezaklarda esa orqadan yoritish bilan hosil qilanadi. Bunda faqat bir yoritish manbasidan foydalanish mumkin. Yorug'lik nuqtalari ko'payib ketsa ko'plab noaniq soyalar paydo bo'ladi. Proeksiya uskunasi yorug'lik manbai sifatida foydalanilsa nihoyatda aniq soyalar paydo bo'ladi.

Soyalarni yaratish uchun oddiy va butaforiya predmetlaridan foydalanish mumkin, proeksiyaga esa tegishli diopozitivlar o'rnatiladi. Bezaklarga oldidan tushayotgan soyalar tomoshabin ko'ziga tushmaydigan bezaklar va ashyolar yordamida hosil qilanadi. Soya hosil qilishning bu usuli ko'p qo'llanadi, negaki bu

paytda yorituvchilar kichikroq xajmdagi ashyolardan foydalanish mumkin.

Soyaning kattaligi ashyoning yorug'lik manbaidan uzoqlashishiga bog'liq, predmet esa tomoshabin ko'ziga tushmaydigan qilib yashirib qo'yiladi. Spektaklda eng muhim jihatlarni oddiy va cheklangan vositalar bilan talqin etishga intilayotgan zamonaviy sahna bezagida soya nihoyatda mo'jaz tasviriy vositalardan biri sifatida qo'llanmoqda. Masalan, o'rmon ko'rinishini yaratish uchun sahnani tasviriy yoki xajimli daraxtlar bilan to'latib yuborish shart emas.

Sahnaga va aktyorga tushayotgan barglar soyasi bilan o'rmon tasavvurini hosil qilish mumkin. Tomoshabinda aktyor daraxtlar bargi orasidan o'tayotgan yorug'lik nurlarida o'rmonda ekanligi haqida to'la tasavvur hosil bo'ladi (42- rasm).



42-rasm. Akterga tushayotgan barglar soyasi bilan o'rmon tasavvurini xosil qilish mumkin.

Bino ichida ko'rsatilayotgan tomoshalarda soyalar deraza ortidagi daraxt va butalarni tasvirlashning nihoyatda qulay usuli hisoblanadi. Masalan, bezak derazasi ortidagi shoxlar shunday yo'nalishda yoritiladiki, ularning soyalari derazaning shaffof pardalariga tushadi. Shoxlar soyasi butun derazaga yoki faqat uning pastki qismiga tushayotganligiga qarab tomoshabin xona birinchi yoki ikkinchi qavatda ekanligini anglab oladi.

Soyasi tushayotgan bargli yoki bargsiz shoxlarga qarab tomoshabin voqea yilning qaysi faslida ro'y berayotganligini tasavvur qila oladi. Deraza ortidagi shoxlarni tebranishiga qarab tashqarida havo qanday ekanligini bilib olish mumkin, engil shabodada shoxlar asta tebranadi yoki qattiq shamolda ular derazaga uriladi.


Sahna va aktyorga tushayotgan barglar soyasi yordamida o'rmon tasavvurini hosil qilish mumkin.

Soyalarni tasvirlash uchun turli ashyolar, maketlar, siluetlar va boshqalardan

foydalanish mumkin. Ammo soyalar tasviridan sahnani yoritishning boshqa zvenolariga zarar etmaydigan qilib, me'yorda foydalanish kerak bo'ladi, aks holda spektakl soyalar o'yiniga aylanib qoladi. Faqat shu yo'l bilangina haqiqiy badiiy yorug'lik bezagiga erishish mumkin.

Soyadan spektaklni yorug'lik bezagida badiiy usul sifatida foydalanish teatr amaliyotida ko'p bora uchragan. Negaki aktyorlarning sahnadagi harakatlari mana shu ko'rinish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu munosabat bilan soya haqida yaxshigina spektakl qilish mumkin. Yoritkichlar yordamida personajdan uning soyasi ajraladi.

Rejissyor va rassom pesada nazarda tutilgan murakkab sahna ko'rinishlarini yaxshi hal qilinishi p'esaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Personajdan soyasini ajratish eng murakkab ish hisoblanadi. Negaki aktyorlarning sahnadagi harakati mazkur ko'rinishni amalga oshirish bilan bog'liq. Bu murakkab sahna vasifasini bajarish uchun rejissyorga mizan sahna tuzish, tegishli bezaklarni yaratish bo'yicha aniq reja beriladi. Bu reja asosida rejissyor yuqoridagi ishlarni bajaradi.



43- rasm. Odam o'nga aylanadi, uning soyasi esa chapga.

Sahnaning yorug'lik bezagida hamma yoqda soyalar turadi. Masalan sahnaning chap tomonida yog'och reshlyotka o'rnatiladi, unga yorug'lik tushsa qarshi tomondagi devorda soya payda bo'ladi. Aktyorlar ham kuchli soya beradigan qilib yoritiladi. Personajdan soyani ajratish o'ng tomondagi devordan bajariladi.

Devor ramkaga tortilgan bo'z matodan qilingan edi va ekran vasifasini bajaradi. Personaj o'z soyasiga murojaat qiladi, unga ta'zim bajo keltiradi, qarshidagi uyda yashaydigan malikanikiga o'tishni so'raydi. Devor ortidan va tasvirlovchi aktyor soyani tasvirlovchi personaj bilan bir paytda ta'zim qiladi. Personaj qaddini tiklayotganda, yoritgichlar unga qaratilgan va soyasini hosil qilgan Projektorni asta o'chiriladi, personaj soyasi turgan joydagi soyani beruvchi, devor ortidagi yoritgichni

yoqiladi, bu esa soyani tasvirlayotgan aktyorning soyasidir.

Projektorlarni yoqib o'chirish shunchalik asta va aniq bajarildiki, zaldagi tomoshabinlar soyani almashtirilganini sezmay qoldi. Shundan so'ng personaj o'ngga, soyasi chapga aylanadi va devor bo'ylab boshqa tomonga yo'naladi. (43-rasm). Soya burchakka etgach, projektor o'chirildi va u ko'rinmay qoldi. Ayni paytda yangi projektor yoqiladi, u dublyor aktyorlardan qarshidagi uy devoriga soya berdi. (44-rasm) Dastlab kichik soya beriladi, so'ngra u asta o'sib boradi, keyin yana kichrayadi, uy eshigidan kirib ketadi. Soyani tasvirlovchi manzara soyani kattaytirish uchun aktyor undan bir necha qadam uzoqlashadi, yorug'lik manbaiga yaqinlashadi, so'ngra u projektordan yana uzoqlashadi va uning soyasi asta kichrayadi. Soya eshikka etib kelgach projektor o'chiriladi, bu bilan soyaning haqiqatdan ham uyga kirib ketganligi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

99-rasm. Soya ijrochini 3-projektor bilan aks etirida hosil qilingan (100-chizma).

Bu epizodni amalga oshirishda foydalanilgan uskunalarni joylashuvi 100-rasmda keltirilgan

Chizmadan ko'rinadiki, to'rsimon pardadan soya 4- projektor bilan yoritiladi, personajning devordagi soyasi tomoshabin zalidagi yoritish lojasidagi 1-projektor bilan, soya rolini o'ynayotgan aktyorning soyasi 2-projektor va qarshidagi uy devoridagi 3- projektor bilan yoritiladi.

Soya ajralgach 5 va 6 projektorlar sahnaning ikki tomonidagi shtativga o'rnatilgan bo'lib, ularning nuri birinchi va ikkinchi plandagi kulislar orasidan o'tadigan qilinadi. Shuning uchun aktyor soyasi kulis orasiga tushadi va tomoshabinga ko'rinmaydi. Personaj soyasi sahna polida bo'lmasligi uchun aktyorning faqat tizzasi yoritiladi.

Soyali epizod aktyor va yorituvchilarning nihoyatda aniq va yaxshi uyg'unlashgan xolda ishlashini talab qiladi. Aktyorlar sahnada faqat cheklangan joyda harakat qilishi lozim bo'ladi, uning chegarasi spektaklni bezash texnik shartlarida belgilab qo'yiladi. Butun spektakl davomida aktyorlarning sahna bo'ylab harakati shunday qurildiki, personajdan tashqari ularning barchasining soyasi keskin tushadigan bo'ladi. Faqat personajning soyasi bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, spektaklni yoritish bezagiga soyalarni qo'llash badiiy jihatdan o'zini oqlaydi. Faqat bunday soyalar bilan mashg'ul bo'lib ketishdan saqlanish kerak, xar bir alohida olingan holatdagi soya nihoyatda yaxshi ko'rinishi va natija berayotganiga ishonch hosil qilish lozim. Xotimada estrada va musiqali dramada qo'llashi mumkin bo'lgan rangli soyalarni yaratish haqida bir necha so'z aytish o'rinli bo'ladi. Buning uchun soya tushadigan yuzani rangli (qizil, ko'k, safsar va boshqa) nur bilan yoritish kerak bo'ladi.

Soya beruvchi predmet oq rang bilan yoritiladi. Predmetning soyasi ham bu yuzani yoritayotgan nur rangiga (qizil ko'k, safsar va boshqa) monand bo'ladi. Agar soya rangini o'zgartirishi zarur bo'lsa, nur tushayotgan yuza turli rangli projektorlar

bilan yoritiladi. Ularni yondirib va o‘chirib soya rangini o‘zgartirish mumkin.

Nazorat savollari :

1. Yoritishda keraksiz soyalar qanday vujudga keladi?
2. Yorug‘lik nur xajmini tartiblash nima?
3. Ikki rolni oyna sellonlardan iborat yorug‘lik nima?
4. Proeksiya uskunasi dan yorug‘lik manba sifatida foydalansa aniq soyalar paydo bo‘ladimi?

Yoritish asboblari



Yoritgich



Yoritgich



Yoritgich



Bosh yoritgich



Bir linzali projektor





Sahna yoritilishini umumiy tahlili

Spektaklni yaxshi yoritish sahnani yorqin yoritishdan iborat bo'lmaydi. Badiiy yoritish har bir kartinaning ma'naviy mazmuniga va kayfiyati(erta, kech, tun, kun), ob-havoni (bulut, yomg'ir, qor), tabiiy ofatlarni (yong'in, suv toshqini, bo'ron) singarilarni ko'rsatishi zarur bo'ladi.

Ammo spektaklda aktyorlar ijrosi bosh masaladir. Aktyorlar eng ifodaviy vositalar bilan yoritilgan bo'lishi kerak va ayni paytda barcha chiroqlar ularning sahnadagi ijrosiga xalaqit qilmasin.

Bu maqsadga erishish uchun har bir teatrning yoritish tizimi mutaxassislari uskunalardan aql bilan foydalanish, ularni joylashtirish teatr zali va tuzilishiga bog'liq ekanligini hisobga olishi zarur.

Spektaklni yoritish uchun qo'llanadigan elektr yoritish uskunalari stasionar va ko'chma singari turlarga bo'linadi.

Stasionar elektr yoritish uskunalarini tomosha zalining ma'lum joylarida (projektorlar yoritish lojalari, ko'chma sofitlar, yoritishi galereyasidagi projektorlar, peshtoqdagi yoritish minoralaridagi projektorlar va boshqalar) o'rnatiladi. Stasionar yoritish uskunalarini ularning sahnaga tushadigan yorug'lik oqimini yaxshilab tekshirgan holda o'rnatish zarur bo'ladi.



Elektr yoritish uskunalari.

Ko'chma uskunalarini ma'lum spektakl'ni yoritish bilan bezash zarur bulganda, sahnaning har qanday joylarga manbalari spektakl boshlanguniga qadar tegishli yo'nalishlarda o'rnatiladi, va tegishli yorug'lik filtrlari bilan jixozlanadi. Bu holatda yorituvchining vazifasi spektakl paytida yoritish guruhining birini yoqib va boshqasini o'chirib yorug'likni sahnaning bir qismidan boshqasiga o'tkazib turishdan iborat bo'ladi.

Bunday tizim juda ko'p yorug'lik manbaini talab kiladi, negaki xar bir yorug'lik uskunasi spektakl' paytida ma'lum vaqt davomidagina foydalaniladi. Mizan sahnani tuzish va aktyorlarni sahnada joylashtirish ham nixoyatda aniq bo'lishi lozim, ular xamisha avvaldan belgilangan joyda turishi kerak. Ayni paytda bunday tizim yorituvchilarni kamroq talab qiladi.

Yalpi, old tomon yoritilishi ham yorug'lik bezagining muhim tomoni hisoblanadi. Buning uchun projektorlarni sahna oldidagi tomosha zaliga o'rnatish zarur. Sahnani yoritishdagi birinchi qiyinchilik shundan boshlanadi, negaki projektorlarni tomosha zaliga joylashtirish nixoyatda cheklangan. Zalda tomoshabindan to'silmagan, uning ko'z oldiga osilib turgan projektorlar spektaklni tomosha qilishga halaqit beradi. Ayniksa spektakl paytida ularning yo'nalishi yoki yorug'lik filtrlari o'zgartirilsa darrov seziladi.



45-rasm. O'ng lojadagi yoritish texnikasi.

Projektorlarni joylashtirish uchun loja , balkon to'sig'i, sahna peshtoki tomosha zali shifti o'qiga ilingan ochiq shtangalari bo'lgan ecki teatr binolarida bu qiyinchilikni engib bo'lmaydi.

Tomosha zaliga osilgan va to'silmagan projektorlarni borligini teatrning tashqi ajralmas xususiyati sifatida talqin etiladi yoziladi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Sahnani yoritish uchun zarur bo'lgan va tomosha zaliga joylashgan barcha yorug'lik manbalari imkon qadar tomoshabin ko'zi tushmaydigan bo'lishi kerak. Bunda projektorlarni

bino ichiga mos tushmaydigan alohida inshoot bilan berkitib bo'lmaydi.

Yangi teatr binolarini qurishda loyihachilar proyektorlar yashiriladigan joylarni tomosha zalining umumiy kurinishiga uyg'unlashtirib borishlari kerak. Bulardan tashqari spektakl chog'ida yorituvchilar har bir proyektorlarning oldiga bemalol bora oladigan bo'lishi kerak. Har bir uskuna ma'lum bir maydonni yoritishi zarur. Ko'pincha tomosha zalidagi proyektorlar tomoshabinga xalaqit beradi. Ularni tartiblanmaganligi va anik yo'naltirilmaganligi uchun peshtokni yoritib tomoshabin e'tiborini sahnadan chalgitadi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun faqat proyektorlarni torroq yo'naltirish va ularning tarmoq teshiklariga tegishli moslamalar ko'yish kerak xolos. Moslamalar hajmi va shaklini shu joyning o'zida tajriba yo'li bilan belgilash mumkin, negaki ular proyektor bilan sahna o'rtasidagi masofa sahnaning yoritiladigan qismi xajmi va proyektor turiga bog'lik bo'ladi.

Proyektorlarning yoritadigan qismlari barobar bo'linishi kerak, negaki barcha yoritish uskunolari yoqilganda sahna maydoni bir xilda yoritilgan bo'lishi zarur.

Bularning barchasini stasionar proyektorlar o'rnatishda hisobga olish zarur, bu ish yorituvchilardan ko'p vaqt va tajribani talab qiladi, ammo keyinchalik stasionar yoritish uskunolari osongina qo'llanadi.

Yoritish asboblari yo'naltirishda shu narsani yoddan chikarmaslik kerakki, sahnani yoritilish quvvati asosan aktyorni yoritish jadalligiga bog'liq bo'ladi.

Faqat aktyor ko'rinmasagina sahna qorong'i bo'ladi. Shuning uchun aktyorni yoritishga asosiy e'tibor beriladi.

Yorug'lik repetisiyasi paytida rejissyorning "ko'prok yorug'lik bering, aktyorlar qorong'ida" degan talablari eshitiladi. Nur barcha yorug'lik nuqtalarini kattaytirib ko'rsatadi, sahna esa "qorong'ida" qolaveradi, sahna yanada qorong'i ko'ringandek bo'ladi.

Buning sababi yorug'likni noto'g'ri taqsimlashda. Sahna oldidagi zalda cheklangan miqdordagi proyektorlar bo'ladi. Ular bilan aktyorni yoritish oson, shuning uchun ular birinchi bo'lib yoqiladi. Projektorning ko'prok yorug'lik berishi talabiga ko'ra qo'shimcha yorug'lik manbalari ishga tushiriladi. Bu bilan sahna ichini yoritish kuchaytiriladi, aktyorlar harakat qiladigan oldingi plan esa o'zgarishsiz qolaveradi. Gap shundaki, sahnaning ichki yoritilishi kuchayganda yorug'lik tomoshabin ko'ziga tushib, aktyorlar yaxshi yoritilmay qorong'ida turgandek tuyuladi. Aktyorni yaxshirok yoritish uchun sahna ichini kuchsizrok yoritish kerak bo'ladi. Sahnani yoritish kuchini oldingi planni yoritishni kuchaytirish hisobiga kamaytirish lozim, oldingi plan yorituvchi proyektorlar sahnadagilarga qaraganda ko'prok quvvat bilan ishlaydi.

Aktyor notekis yoritilganda uning ko'zlari qorong'i chuqurga aylanadi, yanoqlari bo'rtib qoladi, burni tagida soya paydo bo'ladi va uning yuzi qurqinchli niqobga aylanadi.

Bularning barchasi ma'lum bo'lib ko'p bora ta'kidlansa-da, lekin zaldan kelayotgan nur etarli bo'lmaganligi uchun bunga rozi bo'linadi, tegishli proyektorlar bo'lgan peshtoq ko'prikchasidan yorug'lik qo'shish osonroq, shunda zalga ko'shimcha

projektorlar kuyilishiga extiyoj bo'lmaydi.

Sahna pavilonini yoritishda buni qiziqarli va hilma-hil qilishga intilish lozim.

Deraza ortidagi projektorlar yordamida xonaga quyosh yoki oy yorug'i uchun bezaklardagi derazalardan foydalanib, qushni xonalardan yorug'likni ochiq eshik orqali yo'naltirib mazkur spektakl talablariga javob beradigan xaqqoniy vaziyatini yaratish zarur. Tekis oq rangli yorug'lik bilan yoritilgan sahna spektakl repetitsiyasi chog'idagi ishchi yorug'likda bo'lishini harakatning rivoji bilan moslash zarur, bosh voqea sodir bo'layotgan sahna qismi boshqalaridan ko'ra kuchliroq yoritilgan bulishi zarur. Sahnani umumiy yoritishdagi rang voqea ertalab, tushda, tunda va h.k bulayotganligini anglatadi.

Shuningdek umumiy yoritishda yorug'likni xonada mavjud bo'lgan rangli ashyolardan qaytishini hisobga olish zarur. Masalan: sahnada yashil dasturxon bilan yopilgan pol bor va unga quyosh yorug'ligini ifodalovchi projektor nuri tushib turibdi. Yorug'lik poldan qaytadi, lekin sahna umumiy yoritilganligi tufayli bu qaytish sezilmay qolishi mumkin yoki u umuman sahnada qolmasligi xam mumkin. Shuning uchun yorituvchi yashil filtri bo'lgan projektor nurini tegishli joyga yo'naltirib sahnada bu in'ikosni yaratishi lozim.

Pechka yoki kaminning to'q sariq rangini shurangdagi filtri bo'lgan projektor teshiklari bo'lgan diskni aylantirish yoki qizil selofan qog'ozni hilpiratish orqali hosil qilinadi.

Shunday qilib, mavjud sharoitlardan ongli ravishda kelib chiqib, rangli yoritish imkoniyatlari izlanadi. Rangli yorug'lik spektakl bezagini qiziqarliroq bo'lishini taminlaydi. Ammo sahnada nimaiki ish qilinsa, u asoslangan, spektaklning aniq sharoitidan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Yoritish samarali bo'lish uchungina rangli yorug'likni qo'llash mumkin emas.

Oqshomda xonada ro'y berayotgan voqealarni tasvirlashni ularning davri va o'rniga mos keladigan qandil, poldagi va devordagi chiroqlar yordamida hilma-hil qilish mumkin. Yaxshi yoritilgan sahnada bunday yorug'lik manbalarining samarasini kuchaytirish uchun odatdagidan kuchliroq chiroklarni qullash talab qilinadi. Faqat bu chiroqlar tomoshabin ko'zi tushmaydigan bo'lishi kerak. Shuning uchun qalpog'i chuqurroq kilinadi. Chiroq qalpoqlari faqat olov bardosh ashyolardan qilinishi kerak.

Ammo qandillardagi va boshqa yoritish asboblaridagi issiq qanchalik kuchli bo'lmasin, uning polda va pavilion devorlarida hosil bo'lishi uchun etarli bo'lmaydi. Shuning uchun ulani projektorlar yordamida sun'iy ravishda hosil qilish mumkin.

Yukoridagilardan ko'rinadiki, hatto oddiy sahnani yoritish bilan bezatish ongli ravishda yondashuvni talab qiladi. Eskizning o'zidayoq bu kartina qanday va qaerdan yoritilishini oldindan ko'rishi zarur.

Stasionar uskunadan manzara, rangtasvir bilan bezatilgan kulis va orqa devorni yoritishda ham foydalanadi. Orqa devordagi osmon qanchalik yaxshi tasvirlangan bo'lmasin, umumiy yoritishdan tashqari ayrim bulut va ufq yoritilsa, ancha tabiiy

ko‘rinish tusini oladi. Agar rang tasvirli orqa devorda arxitektura qurilishlari bo‘lsa u erdagi yorug‘lik va soya yorqinroq bo‘ladi. Orqa devorlarning barcha qisimlarini yoritishning zarurati yo‘qoladi.

Quyosh nurlari cheksiz bo‘lgan o‘rmon kartinalarida ularni ayrim proyektorlar bilan yaratishning imkoni yo‘q. Bu holatlarda proyektorlarda noto‘g‘ri shaklli teshiklar bilan to‘siqdan foydalaniladi. Shunday qilib bunday to‘siq bilan jihozlangan bir proyektor ko‘plab kuyosh shu‘lalarini hosil qilishi mumkin. Quyosh shu‘lari aniq bo‘lishi uchun projektordan linza olib kuyiladi. Bunday proyektorlar bilan aktyorlar va pol yoritilganda, sahnada daraxt barglari orqali shu‘la tushayotgan tasavurni beradi.

Rangtasvir bezaklar o‘rniga yoritishda projektorga odatda qopqoq qo‘yiladi, u zarur bo‘lgan shu‘la shakliga mos keladi. Shu asnoda proyektor faqat zarur joyni yoritadi. Bunda proeksyani ham bemalol qullash mumkin. Buning uchun diapozitivlarni tayyorlash lozim, ularni rangtasvir bezaklarida tasvirlaganda yorug‘likning zaruriy shaklidagi keskin cheklangan dog‘i hosil bo‘ladi.

Rangtasvir bezaklarini tarqoq nur bilan yassi sahnada yoritish o‘tgan yuz yillikning boshlarigacha ko‘llangan sahna texnikasini taraqqiy etishi bilan yorug‘lik bezagi prinsiplari o‘zgardi. Keyingi yillarda shuningdek aylanadigan sahnalarni talab qilib qolindi. Birdaniga bir necha kartinani tuzish va pardalar ochiq bulgan holatda tez almashtirish mumkin bulgan aylanadigan sahna katta hajimdagi bezaklardan foydalanish imkonini kengaytiradi. Orqa devorni manzara sifatida foydalanish mumkin bo‘lmay koldi. Ammo yoysimon sahnada turadigan bezakni spektakl paytida almashtirish ko‘p vaqt va mehnat talab qilganligi tufayli mo‘‘tadil orqa devor bezagida doira ufq yaratildi. Uni yoritish uchun ko‘plab turli rangdagi yorug‘lik nurlarini ishlatishga to‘g‘ri keldi. Natijada gorizont soffit paydo bo‘ldi.

Hajmli bezaklar ularning hajmini ta’kidlash uchun keskinroq yoritishni talab qildi. Sahnaning umumiy yoritilganligining kuchayishi aktyorlarni jadal yoritish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuning uchun sahnani soffitlar bilan yoritish ikkinchi darajali bo‘lib qoldi.

Ko‘pgina teatrlarda haligacha rangtasvir bezaklari bilan bezatish davom etmoqda. Ular asosan soffitlar bilan yoritilyapti, ayrim proyektorlar qushimcha qilinyapti. Albatta soffitlarni butunlay iste’moldan chikarib yuborish mumkin emas, lekin teatrdan undan turli xilda foydalanish yo‘lini qilish lozim. Bu bilan hatto bezaklar rangini ham o‘zgartirish mumkin. Masalan, pe’sada yozgi yashil va kuzgi sariq bog‘ tasvirlanadi. Sahnada har ikkala ko‘rinish bir bezaklar bilan ifodalanadi. Daraxtlardagi barglar oq va qora ranglarda tasvirlangan. Yozgi sahna tegishli teshikli to‘siq va yashil rangli yorug‘lik filtri, ko‘zgisi esa sariq va qizil rangli filtrlar orqali yoritiladi.

Spektaklda yorug‘lik ta’sirida ro‘y beradigan bunday o‘zgarish barchani xayratga solishi tabiiy. Bunda bezaklar ayni bir hilda bo‘lganligini, yoz va kuz manzaralari faqat yoritish uskunolari orqali hosil qilinganligini hech kim sezmay koldi.

Ko‘plab stasionar proyektorlardan iborat yoritish tizimi sahna bezagining xilma-xil uslublarida ko‘llanishi mumkin, bo‘nda spektaklda , rangtasvir , xajmli yoki

proektsiyalangan bezaklar ishlatilishidan qat'i nazar realistik yoki shartli bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, yaxshi yo'lga ko'yilgan yoritish tizimi spektaklni har tomonlama boyroq, mazmundorroq qilishiga xizmat qiladi.

Takildash joizki, teatrning texnik bezagi qanchalik xilma-xil bo'lsa, sahna asarlarini yoritish bezagi nuqtai nazaridan nihoyatda keng imkoniyat yaratilishi mumkin. Zamonaviy dramaturgiyada yangi yo'llarni qidirilayotgan paytda bu ayniqsa muhimdir. Murakkab san'atlardan biri bo'lgan teatr san'atida sahna bezagi sohasida yangi ifodaviy shakllar yaratish zarur. Teatr rassomi yorituvchisining mahorati asar mazmuniga mos shaklni muvoffaqiyatli topishida ko'rinadi. U sahnani texnik va yoritish bezagi usullarini yaxshi bilishi, sahna ishchilariga o'z talablarini ko'ya bilishi lozim. Fakat shu yo'l bilangina sahna bezagining yangi yo'nalishlari paydo bo'ladi. Keyingi paytlarda dramaturgiyada shakliga ko'ra xilma-xil bo'lgan asarlar ko'plab yaratilmoqda. Bu ham aktyorlar ijrosida, ham spektaklning badiiy bezagida o'z ifodasini topmoqda.

Teatrlardagi ko'plab spektakllarning sahnaviy bezagi lo'ndaroq va shartliroq bo'lib qoldi, ammo ularni sahnalashtirish yanada murakkablashadi. Agar rangtasvir bezakli spektakllarni bezatish rassom ishining eskizini taqdim etish bilan yakunlangan bo'lsa, yuqoridagi sahna asarlaridagi eskizlar faqat ishning boshi bo'lib qoladi. Ochiq parda sharoitida kartinalarni tez almashinishi sahnada bo'layotgan voqealar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lishi kerak. Yoritish kartinadan kartinaga asta o'zgarib borishi lozim. Bularning barchasi bezatuvchi rassomdan ko'p bilimni va amaliy tajribani talab qiladi.

Repetisiya boshlanguniga qadar sahna qaerdan va qanday yoritilishi rassomga ma'lum bo'lishi kerak. Yoritish repetisiyasi paytida u yoki bu uskunani tavakkaliga yoqib va o'chirib qandaydir natijaga erishish mumkin. Lekin agar sahna yoritishning yaxshi o'ylangan sxemasi mazkur spektaklni yoritish kompozitsiyasi tayorlangan bo'lsagina spektaklni yoritish bezagiga yaxshi natijaga erishish mumkin. Bu shemada u yoki bu yoritish guruhining ayrim kartinalardagi vazifasi belgilanadi. Tartiblagich yonidagi yorituvchi ishi aniqlanadi. Yoritish filtrlarini almashtirish tartibi belgilanadi. Spektaklning yorug'lik parteturasini belgilash va tekshirish repetitsiyasida zarur bo'lgan uskunalarni tayyorlashni yorituvchilar ana shu shema buyicha bajarishi mumkin.

Rassom yoritishdagi har bir nuqsonni seza olishi kerak. Negaki yoritishdagi yo'nalishni o'zgina o'zgarishi sahnani yoritilishni yaxshilashi yoki yomonlashtirishi mumkin. Rassom yoritishning umumiy kompozitsiyasida o'ziga yoqmagan jihatlarini aniklashi va bartaraf eta olishi lozim. Yoritish repetitsiyalarida dastlab umumiy yoritish so'ngra u er bu erdan yoritgichlar ko'shish odati bor. Ba'zan xamma proyektor yoqiladi. Hosil bo'lgan yoritish koniqtirmaydi. Shunda yorug'likni yana kamaytirish ko'paytirish ishlari boshlanadi. Natijada qandaydir tasodifiy va oraliq variant tanlanadi. Qorong'i sahnaning ayrim kismalarini ma'lum proyektorlar bilan yoritishni boshlagan ma'qul. Shu holatda proyektorlar aynan zarur narsani

yoritayotganligi ma'lum bo'ladi. Agar noto'g'ri bo'lsa nur yo'nalishi va kengligi tartiblanadi. Shu tariqa yorituvchi har bir projektorni tekshirib olishi mumkin. Projektorlar nurini asta ko'paytirib yoki kamaytirib keraklisi topiladi. Rejesyor va rassom o'rtasida haqiqiy ijodiy hamkorlik asosidagina chiqibgina yaxshi yoritilgan spektakl yaratish mumkin. Spektaklni yoritishda aniq standart ko'rsatma bo'lishi mumkin emas. Har bir spektakl va kartina o'z yorug'lik bezagiga ega bo'lishi kerak. Spektaklni mantiqiy va bexato yoritilishi tomoshabinga voqealarni kuzatishga eng muhim jihatini aniqlashga va ikkilamchisini e'tibordan soqit qilishga yordam beradi.

Nazorat savollari:


1. Yoritish uchun qo'llanadigan projektorlarniqanday turlari bor?
2. Projektorlar qay usulda joylashtiriladi va taqsimlanadi?
3. Yorug'lik manbalarini samarasi nimada?
4. Yoritish filtrlarning axamiyati.



“ Tuyakush Boyqush” spektakli eskizi. A.Orinov



“ Dilraboning tumori ” spektakli eskizi. A.Orinov



“ O'lding aziz bo'lding ” spektakli eskizi. A.Orinov



“ Uygʻonish ” spektakli eskizi. A.Orinov

Xulosa

Oʻzbekiston Respublikasining Mustaqilligi tufayli barcha soxalar kabi teatr sanʼati ham xkumatining gʻamhoʻrligidan keng ravnaq topmoqda va bu sanʼat sohasiga koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrlik tufayli spektakllarni sahnalashtirish da rassomlikdan va dizayn imkoniyatlaridan foydalanish ishlari yanada kengaymoqda.

Teatr va rassomlik sanʼatida sahna bezaklari turli moslamalar va ularni xar xil yoʻllari bilan tayyorlash hamda oʻrnatish ishlari keng kamrovli va koʻp qirrali oʻz navbatida oʻta muhim maʼsuliyatli faoliyatlardan biridir. Uning murakkab texnik vositalari va uni ishlatish yoʻllari sahna xodimlarida tortib to raxbarlargacha maʼsuliyatli vazifalarini yuklaydi. Spektakllarning mazmuni va moxiyatiga qarab sahna bezaklarini joy joyiga qoʻyish rejessyor va yoritish ustalaridan ayniqsa dekorasiyalar uchun maʼsul boʻlgan rassomlardan katta isteʼdod ijod talab etadi. Bu bilan tomoshabinlarning zavqini oshirish teatrlarga boʻlgan qiziqishlarini kengaytirish eng muhimi esa maʼnaviy va maʼrifiy maʼdaniyatni yanada chuqqur singdirishda xizmat qiladi.

Umuman olganda yuqorida ungga murakkab bo'lmagan yoritish uskunolari bilan ifodali ko'rinishlar hosil qilish usullari haqida so'z yuritiladi. Jahon teatrlari amaliyotida ana shunday vositalardan foydalanish spektakllarni yanada jazibaliroq bo'lganligiga misollar juda ko'p. Afsuski, bizning teatrlarda bunday faqat ifodaviy vositalardan ko'p ham foydalanilavermaydi. Uskunalar sahnani va aktyorlarni yoritish bilan mashg'ul. Turli xodisalar, vaziyatlar, holatlar tasvirini ularga aloqasi yo'qdek. Yorituvchilar esa ko'p ham ijod, fantaziya qilavermaydi, bular spektakllarni shablon bo'lib qolishga olib kelmoqda. Yoritish masalalarini qamrab olgan ushbu qo'lanma yorituvchi rejissyorlar fantaziyasini uyg'otib yuboradi, degan umidamiz

Izoxli lug'at (terminlar)

- Avansahna** – tomosha zaliga chiquvchi sahna qismi
- Anilin**- sahna bezaklariga purkaladigan siyohli bo'yoq
- Avirsahna** – sahnaning davomi, ichki ohirgi qismi
- Kolosniklar**- sahna tepasining panjarali shifti
- Kompozisiya** – asar echimini kompleks echish uslubi
- Kulis** – Sahnani o'ng-chap tomoniga ilinadigan pardalar
- Mizansahna** – Sahnadagi voqiyalik (sahnadagi aktyorlarni joylashtirish)
- Montaj** - spektakl bezaklarini sahnaga qo'rish
- Ponorama** – sahnaning orqa qismini yarim doyra shaklida to'sib turuvchi mato
- Pistolet – sahnaning kerakli joyiga yorug'lik beruvchi elektr chiroq
- Planshet – yog'och pol qilingan sahna ko'rinish
- Partal** – Yoritish ko'prigi
- Partal minorasi**- yoritgichlar o'rnatilgan, siljidigan temir karkaz moslama
- Partitura**- Spektaklni yoritishni umumiy tuzilish sxemasi (jadvali)
- O'ng loja**- Projektorlar joylashgan texnika,yoritish texnikasi o'rnatilgan joy
- Chap loja**- Projektorlar joylashgan texnika,yoritish texnikasi o'rnatilgan joy
- Shtativ** – Projektorlar joylashagan qurilma
- Proeksiya** – Sahnani bezashda effektlarni hosil qiladigan uskuna
- Dipozitiv**- tasvir tushiriladiganoyna

Rampa(lar) – Sahnani oldida joylashgan lampalar
Stasionar – Yoritish uskunolari joylashgan bino (Teatr konsert zali va binolar)
Tubus – nurni cheklovchi to'siq
Fokus- proeksiya uskunasi birlashtirib tasvirni uzoqda yoki yaqin yumshoq qilish mumkin
Fon - sahnaning orqa tomon ko'rinishi
Soffit- Projektorlar
Paza- Diapozitivlar uchun mo'ljallangan joy
Sellon- rangli filtr diapozitiv tayyorlash uchun xar-xil rangli sellon bo'lagi olinadi
Siluet- Qog'ozda kesib olingan tasvir
Partiturası- Spektaklni yoritishning umumiy tuzilish sxemasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.; “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2000 y
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.; “Ma'naviyat”, 2008 y
3. Bazanov V. V. Texnika i texnologiya sseny .– L., «Iskusstvo», 1976.
4. D.Masurenkov. Mastera vizualnykh effektov – Moskva. 2002 g
5. Sosnovskaya A. Xudojniki teatra i kino - T.; Izd – vo lit.i iskusstva. im. G.Gulyama. 1982 g
6. Sosnovskaya A. Xudojniki teatra i kino - T.; Izd – vo lit.i iskusstva. im. G.Gulyama. 1982 g
7. Крылов V.K. Освещение производственных объектов. – М., ВЗИИТ, 1995.
8. Belov S.V. Проблемы безопасности при чрезвычайных ситуациях. – М.: VASOT. 1993.

Internetdan olingan materiallar:

<http://dramateshka.ru/index.php/methods/scene-graphics/5341-osvetenie-eatraljnoyj-scenih-istoricheskiyj-ocherk?start=2#ixzz2GvEm1PLw>

Mundarija

1. Kirish.....	4
2. Yoritish rejissurasining teatr va televediniya kino ishlab chiqarishdagi o‘rni	5
3.Yoritish rejissurasida yahlitlik	7
4. Yoritish rejissurasida proeksiya.....	8
5. Yorug‘lik rejissurasida diapozitivlar	12
6..Teatr va kino televediniyada yoritish uskunalarining o‘rni	27
7. Sahnada soya (yoritish qonunlari va ularni xarakteristikalar.)	32
8. Soyani yorug‘lik manbasi yordamida aks etish	34
9. Sahnani yoritishning umumiy tahlili	42
10. Yoritish rejissurasiga atalgan foto rasmlar	58
11. Xulosa.....	60
12. Foydalanilaigan adabiyotlar.....	65

